

Xurshida Hamroqulova, Qozoqboy Yo'Idosh

ZULFIYANING HAYOT VA IJOD YO'LI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Xurshida Hamroqulova, Qozoqboy Yo'ldosh

ZULFIYANING HAYOT VA IJOD YO'LI

(metodik qo'llanma)

37053



"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2022

UO'K: 821.512.133.09-1

KBK: 83.3(5O')

H 25

ISBN 978-9943-8127-4-1

Xurshida Hamroqulova, Qozoqboy Yo'ldosh.

Zulfiyaning hayot va ijod yo'li [Matn] : metodik qo'llanma / X. Hamroqulova, Q. Yo'ldosh. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 80 b.

Ushbu metodik qo'llanma uzlusiz adabiy ta'lim muassasalarini o'qituvchilari uchun maxsus ishlab chiqildi. Metodik qo'llanmada Zulfiya hayoti va ijodini o'rghanishga kompleks yondashildi. Bitikda Zulfiya hayoti va ijodi, shoira ijodining o'ziga xos qirralari, uning adabiy-estetik qarashlari, lirikasi, dostonlari, publisistikasi, ocherklar, adabiy suhabatlar, maqolalar va xotiralari bilan tanishishning samarali yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, shoiraning tarjima sohasida amalga oshirgan ishlari xususida ham ma'lumotlar berilgan.

Mas'ul muharrir:

Marg'uba Abdullayeva – filologiya fanlari doktori, professor

Mualliflar:

Xurshida Hamroqulova – filologiya fanlari doktori, dotsent

Qozoqboy Yo'ldosh – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqribchilar:

Dilmurod Quronov – filologiya fanlari doktori, professor

Hoshim Ahmedov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu metodik qo'llanma O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining 8-sonli majlis bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.

KIRISH

Har qanday millatning ma'naviy qiyofasini uning oydin (ziyoli)larining intellektual-estetik saviyasi belgilaydi. Shuning uchun ham har qanday kasb egasi bo'lgan oydin shaxsning o'z milliy adabiyoti namunalaridan xabardorlik darajasi jamiyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot odamga shunchaki axborot bermaydi, balki badiiy vositalar yordamida kishida munosabat uyg'otadi, tuyg'ularini qo'zg'aydi. Har qanday munosabat esa kishida nuqtayi nazar, pozitsiya, ma'naviy qiyofa shakllanishiga xizmat qiladi.

Odamning o'zini tanishida o'zga kimsani his qilish hal qiluvchi o'rincutadi. Negaki, o'zgani tuygan, tushungan kishigina o'zini taniy oladi. Odamda bu sifatlarni shakllantirish borasida esa badiiy adabiyot eng ta'sirli vositadir. Shu ma'noda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar yosh mutaxassis uchun shoira Zulfiyaning ijodini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki shoira Zulfiya o'zining uzoq yillik ijodiy umri davomida yuksak ma'naviy fazilatlarni kuyladi, ularni tinim bilmay targ'ib qildi. Bu holat kelajak egalari bo'lmish millat oydinlarining shoira ijodidan atroflicha xabardor bo'lishlarini taqozo qiladi.

Zulfiya o'zining ijod namunalarida sadoqat, vafo, odamiylik, yurtsevarlik, adolat singari e兹gu ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarannum qildi. Muhimi shundaki, shoira yuqorida yuksak ma'naviy sifatlarni shunchaki chaqiriq shaklida o'rtaga tashlamadi, balki o'zining yurak prizmasidan o'tgan, o'z tuyg'ulari va sezimlarini bezovta qilgan axloqiy fazilatlarni o'z qismati misolida jonli ko'rsatib berdi. Shuning uchun ham uning samimiy she'riyati odamlar qalbiga chuqur kirib bordi, ularni loqaydlikdan chiqardi, ma'naviy katarsis (tozarish) sari yo'lladi.

Shoira, barcha iste'dod egalari singari, o'zi yonmay turib o'zgani yondirish mumkin emasligini yaxshi anglagani sababli o'z tuyg'ularini ifodalashda chin samimiyat va tabiiylik yo'lidan bordi. Bu hol uning bitiklarining o'qishli bo'lishini, o'zgalarga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'minladi.

Zulfiya faqat ijodi bilan emas, balki yirik shaxsiyati, oljanob tutumlari, e'tirof qilish va andaza olishga loyiq hayot yo'li bilan ham o'zgalarga namuna edi. Yigirma to'qqiz yoshida beva qolgan Zulfiya o'zining uzoq umri davomida yori – buyuk shoir Hamid Olimjonqa bo'lgan ulkan muhabbatiga sodiq qola bildi. O'zbek ayoliga xos sadoqat, vafodorlik, sabr-u qanoat, fidoyilik namunalarini ko'rsatib yashadi.

Shoira asarlarining eng ta'sirchan, eng tabiiy va eng yodda qoladigan namunalari aynan visolsiz hijron, tuganmas ayriliq tuyg'ulari aks etgan bitiklaridir. Shoiraning mahorati va samimiyati tufayli uning shaxsiy tuyg'ulari umummilliy va umuminsoniy ko'lam, xususiyat kasb etdi. Zulfiya tuyg'ularini his etishga, u tortgan dardlarning ko'lamini tuyishga qobil kishigina o'zgalarning hislarini anglaydigan, binobarin, birovning dardini tushunadigan darajaga yuksaladi.

Zulfiyaning ijodini o'rganish, har qanday bo'lajak mutaxassis uchun, navbatdagi bir o'quv topshirig'i emas, balki har bir odamning o'z onasining mehr-u muhabbatga to'la qalb sirlari bilan oshno bo'lishdir. Shoiraning ijod olamiga chuqurroq kirilgani, uning insoniy dardlarini anglab borilgani sari odam o'z shaxsiyatining o'zgarib, tozarib borishini ta'minlagan bo'ladi. O'zgani tushunadigan, birovning ruhiy holatini tuyadigan odamgina o'z millati va yurtining yorqin kelajagini qura oladi.

Zulfiyaning adabiy chamanzoriga xush kelibsiz. Uning anvoyi gullar ochilgan, totli mevalar pishib yetilgan bog'idan to'liq bahramand bo'lish, ya'ni shoira bitgan badiiy asarlarini o'qish va uqish uchun ruhiyatingiz va aqlingizni sozlang.

Zulfiya bir necha tup mevali daraxt ekish bilan kifoyalangan bog'bon emas. U – butun boshli sara poetik bog' yaratgan badiiyat dehqoni. Uning badiiy mevalaridan bahramand bo'lish har bir kishining intellektual-estetik saviyasiga bog'liqdirki, uni yuksaltirmay turib, shoira egallagan estetik cho'qqilarga yetib borish mumkin emas. Shoira Zulfiya bitiklarini tushunish, demakki, o'z-o'zini anglab yetish har kishiga nasib etsin!

I BOB. ZULFIYANING HAYOT VA IJOD YO‘LI

Reja:

1. *Zulfiya hayoti va ijodi haqida.*
2. *Zulfiya ijodining o‘rganilishi.*
3. *Zulfiya ijodi haqidagi e’tiroflar.*

Tayanch tushunchalar:

badiiy ijod, san’at, adabiyot, ijtimoiy sharoit, oilaviy va adabiy muhit, ijodiy niyat, mavzu

1. Zulfiya hayoti va ijodi haqida. Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentning O‘qchi mahallasida tug‘ildi. Zulfiya oiladagi kenja farzand bo‘lib, uning to‘rt akasi bor edi. Vaqtি kelib, o‘qimishli, oqil va tashkilotchi og‘alarning hammasi ham Kengash (sovet) idoralaridagi mas‘ul lavozimlarda ishladi, ammo qatag‘on yillarining shafqatsiz qahri ularning birontasini chetlab o‘tmadi.

Oiladagi fayzli muhitda onasining o‘rnı beqiyos edi. “*Hayot varaqlari*” (1978) deb nomlangan xotirasida onasi haqida shoira shunday yozadi: “*Endi bilsam, onamning bitta o‘zлari hozirgi zamon bolalariga har vil axborot beruvchi o‘nlab manbalar o‘rnini bosar ekanlar. Agar iste‘dodim bor bo‘lgan bo‘lsa, uning chashmasi – onam*”. Agar adabiyot uhliga bir kaft don yanglig‘ she‘riy hosil tutgan bo‘lsam, uning urug‘ini qalbimga avvalo onam sochganlar”. Zulfiya davom etib yozadi: “*To‘g‘ri, biz hoy yashamasdik, oson ham yashamasdik, faqat go‘zal yashardik, tinch vashardik*”. Mazkur fikrlar hamma davrlar uchun, ayniqsa, XX asrning 20-30-yillari uchun juda qadrlı edi.

Bu yillardagi adoqsiz ijtimoiy to‘polon va qatag‘onlar sharoitida oilada go‘zallik va tinchlikni saqlash ulkan saodat edi. Zulfiya bolalik va o‘smirlilik davrining baxtli kechganini faxr bilan xotirlaydi: “*Men onamning kenjası edim. Onam! Yillar o‘tgan sayin men bu mo‘tabar zotni yaxshiroq tanib borayotganday bo‘laman. U tobora mening yuragimga yaqinroq kelib, jon-jonimga singiydi. Shoир bir o‘rinda bolaligim haqida yozgim keladi, ba‘zan she‘rlarimga shaffof kunlarimning parchalari oqib kiradi, lekin u bir tomchi xolos*”, – deb yozadi.

Shoira Zulfiyaning hayoti bilan chuqurroq tanishib chiqish natijasida shu ma‘lum bo‘ladiki, shoiraning “...bir tomchigina shaffof bolalik kunlari” “Xotiram siniqlari” dostonida tasvirlanganidek, real hayotdagi fojelikka borib qo‘silib maxzun lirik kuyga aylangan. Zulfiyaning onasi

haqidagi xotiralari keyinchalik uning suhbatlarida ham aks etgan. Onasining Mashrab va Fuzuliy ijodidan boxabarligi, mayin ovozi (“*Ba’zan Hulkar gapirayotganda onamning mayin ovozi eshitilgandek bo’lib ketadi*”), mohir kashtachi bo’lganligi, Zulfiyaning to’yiga atab kashta tikanligi, keyinroq, urf-odatga amal qilib Zulfiya mashhur kashtani o’z qizi Hulkarning sepiga ataganligi haqidagi, Hamid Olimjonga turmushga chiqayotgan mahallar sovchi bo’lib kelgan odamga Hamid Olimjonning onasi bormi ekanligini so’raganligi haqidagi qiziq ma’lumotlar shoira oilaviy hayotida milliy qadriyatlar ustuvor bo’lganini, shoira shaxsiga bu jihat qattiq ta’sir ko’rsatganini bildiradi.

Zulfiyaning yoshlik yillari, texnikumda o’qigan davri o’zbek ayollarining paranji yopinishiga qarshi ommaviy kurash borgan “Hujum” davriga to’g’ri kelgan. Tabiiyki, shoiraning erkinlikka moyil shaxsiyati, bir qadar ochiq oilaviy muhit va davr talabi uni bu kampaniyada faol bo’lishini talab qilar edi.

Shoiraning otasi temirchi edi. Uning ustaxonasi uyining yonida joylashgani uchun Zulfiya otasining og’ir va zahmatli mehnatini obdon kuzatish imkoniga ega bo’lgandi. “*Olov va mehnat mahorat bilan birikkanda inson ko’p ishlarning uddasidan chiqishi mumkinligini men bolalikdan anglab yetdim*”, – degan edi shoira o’z tarjimayi holida.

Zulfiya uylari yaqinidagi maktabni bitirgach, 1931-1934-yillarda xotin-qizlar pedagogika bilim yurtiga o’qishga kiradi. Ushbu bilim yurti 1919-yilda mashhur Munavvar qori tashabbusi bilan tashkil etilgan bo’lib, uning ilk bitiruvchilari Jahon Obidova, Saodat Shamsiyeva singari taniqli ayollar edi. Bilim yurti qoshida adabiy to’garak tashkil qilingan bo’lib, uni shoir Shukur Sa’dulla boshqargan. Bu davrda to’garakka G’afur G’ulom, Uyg’un kabi shoirlar tez-tez kelib turishar, ularning suhbati, turli adabiy uchrashuvlar, kitoblar shoiraga ijod sirlarini anglashga ko’mak berar edi. Shoira ijodining dastlabki davrlarida o’z vaqtining taniqli adibasi Oydin Sobirovani o’ziga ustoz, deb bilar, ijodiy faoliyatda ham unga o’xshashga intilar edi. Ammo 1934-yilda Zulfiya otashin shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgach, adabiyot va uning missiyasi borasidagi qarashlari tubdan o’zgarib ketdi.

Yosh shoira umr yo’lining katta iste’dod egasi hayoti bilan tutashuvi uning hayoti va ijodiy yo’nalishinida tubdan o’zgartirib yubordi. Shoira o’z ustida ishlab ilmini oshiriga kirishdi: aspiranturaga o’qishga kirdi. Respublika bolalar nashriyotida muharirlik qildi. Bu orada boshlangan ikkinchi jahon urushi Zulfiyaning bir maromdagisi baxtli hayotiga tahrir kiritdi. Bu davrda Zulfiya yana bir katta va shafqatsiz sinovga uchradi.

Turmush yo'ldoshi va ustozи, buyuk shoir Hamid Olimjonning o'limi uning hayotida uzoq davom etgan ayriliq davrini boshlab berdi. Bu halokat shoira yelkasiga ikki ijodkor uchun tengdan ijod qilish mas'uliyatini yukladi. Bundan tashqari, Zulfiya bolalariga ham ota, ham ona bo'lishi kerak edi. Hamid Olimjonning porloq xotirasi uni ruhan va jisman tetik bo'lishga undardi. Shoira faqat ijoddha emas, balki bir qancha ijtimoiy vazifalarni ham yelkasiga ola bildi. U **"Saodat"** ("O'zbekiston xotin-qizlari") jurnalida 30 yil bo'lim boshlig'i, bosh muharrir vazifalarida ishladi. Bu katta davr Zulfiya ijodining rivojlanish, adabiy-estetik qarashlarining yuqori bosqichga ko'tarilish davri bo'ldi.

Osiyo va Afrika yozuvchilar harakatida faol qatnashdi. Mamlakatimiz vakili sifatida Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstraliya kabi mamlakatlarda bo'ldi. Zulfiyaning el-yurt uchun qilgan xizmatlari munosib taqdirlandi. U respublika davlat mukofoti, SSSR davlat mukofoti laureati bo'ldi. Xalqaro "Nilufar" mukofoti, Bolgariyanig "Kirill va Mefodiy" ordeni sohibasi edi. O'zbekiston yozuvchilarini orasida uchinchi bo'lib Sotsialistik Mehnat qahramoni unvoni berilgan edi.

O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya 1996-yil 1-avgustda vafot etdi.

1-chizma

"Endi bilsam, onamning bitta o'zлari hozirgi zamon bolalariga har xil axborot beruvchi o'nlab manbalar o'rнни bosar ekanlar. Agar iste'dodim bor bo'lган bo'lsa, uning chashmasi – onam".

"Agar adabiyot ahliga bir kaft don yanglig' she'riy hosil tutgan bo'lsam, uning urug'ini qalbimga, avvalo, onam sochganlar".

"Hayot varaqlari"(1978)

2-chizma

"Men onamning kenjasи edim. Onam! Yillar o'tgan sayin men bu mo'tabar zotni yaxshiroq tanib borayotganday bo'laman. U tobora mening yuragimga yaqinroq kelib, jon-jonimga singiydi.

Bolaligim haqida yozgim keladi, ba'zan she'rlarimga shaffof kunlarimning parchalari oqib kiradi, lekin u bir tomchi xolos"

“To‘g‘ri, biz boy yashamasdik, oson ham yashamasdik,
faqat go‘zal yashardik, tinch yashardik”

“Saodat” (“O‘zbekiston xotin-qizlari”) jurnalida 30 yil
bo‘lim boshlig‘i, bosh muharrir vazifalarida ishladi. Bu katta
davr Zulfiya ijodining rivojlanish, adabiy-estetik
qarashlarining yuqori bosqichga ko‘tarilish davri bo‘ldi.

1-topshiriq. Zulfiyaning ijtimoiy faoliyatini yoriting.

2-topshiriq. Shoira she’rlaridan birini yoddan o‘qing.

2. Zulfiya ijodining o‘rganilishi. Zulfiya ijodining o‘rganilish davri uning adabiy-estetik qarashlarining o‘sish va o‘zgarish davri bilan uyg‘un keladi. Shoira ijodini shartli ravishda quyidagi bosqichlardan iborat, deb belgilash mumkin:

1. XX asrning 30-yillari. Bu davrdagi ijodida badiiyati zaif, ijtimoiy yalang‘och she’rlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. “Hayot varaqlari” she’riy to‘plami misolida buni yaqqol kuzatish mumkin.

2. XX asrning 40-yillari ijodi. Bu davrda uning lirkasiga Hamid Olimjonning jiddiy ta’sirini kuzatish mumkin. Shuningdek, 40-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab uning she’riyatiga hijron motivi kirib keldi va u bu motivni yuqori pafosda kuyladi. Shoiraning “*Uni Farhod der edilar*” dostoni mashhur teatr aktyori Qobilqori Siddiqovning hayotiga bag‘ishlangan edi. Ko‘rinadiki, bu davr she’riyatida shoira shaxsiylashgan ijtimoiy dardni kuylashni lirkasining asosiy xususiyati sifatida tayin qildi.

3. XX asrning 50-70-yillari. Bu davrda ijodkor she’riyati hajman ixchamlashdi, fikriy jihatdan ko‘lamdorlik kasb etdi. Shoira she’riyati falsafiy umumlashmalar bilan boyidi. Zulfiyaning bu davr lirkasida vazminlik va o‘ychillik yetakchilik qildi.

4. 80-90-yillar she’riyati. Bu davr she’riyatida o‘zi timsolida o‘zbek ayolini sabr-u sadoqat timsoli sifatidagina emas, butun umrini orzu va amonlar bilan o‘tkazgan chin inson sifatida namoyon etishga urindi. Zulfiyaning bu davr ijodida “Xotiram siniqlari” dostoni alohida o‘rin tutdi.

Zulfiya ijodini janriy yo‘nalishlari jihatidan uch yirik guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. She’riyati. Uning she’riyatini she’rlar va dostonlarga bo‘lish maqbulroq.

2. Publitsistikasi. Bu yo‘nalishda uning ocherk, xotira, suhbat va maqolalari alohida o‘rin tutadi. Shuni qayd etish lozimki, uning publitsistikasi ravon yozilgani, oson tushunilishi va boy badiiy tasviri bilan ajralib turadi. Balki bu uning o‘ttiz yildan ko‘proq vaqt mobaynida “Saodat” jurnalidagi faoliyat ko‘rsatganligining mahsulidir. Ayni shu davrda bu jurnalning respublikada yetakchi oybitik maqomiga ko‘tarilganini alohida aytish lozim.

Shoira xotiranavis sifatida o‘z iqtidorini Hamid Olimjon, Mirtemir, Ildicha Sulaymonovaga bag‘ishlangan asarlarida namoyon etgan. Keyinroq, Oybekka bag‘ishlab yozilgan “Quyoshli qalam” dostonida shoiraning bu yo‘ldagi kuzatishlari liro-epik tus olganini ham ko‘rish mumkin.

Zulfiya adabiy suhbatlari uchun she’r, ijodkor, zamon haqidagi o‘ylari yetakchi mavzular bo‘ldi. Ayni shu yo‘nalishdagi suhbatlarida shoiraning ijodkor sifatidagi qiyofasi ko‘proq ranginlik kasb etdi. **“Yurtim xaritasi – mening yuragim”** (Shoira Olga Ipatova bilan suhbat), **“Hayot va so‘z”** (Aleksandr Naumov bilan suhbat), **“Go‘zallik yashagan qalb”** (Anvar Jo‘raboyev bilan suhbat) shoiraning uch jildlik saylanmasiga kiritilgan.

Olga Ipatova bilan suhbatda Zulfiya o‘zining shoira sifatida tug‘ilishini ikkinchi jahon urushi yillari bilan belgilaydi. Bu davrda yozilgan sara asarlari sifatida “Uni Farhod der edilar” lirik dostoni, **“Palak”** she’ri va **“Hijron kunlarida”** she’riy kitobini alohida ta‘kidlaydi. Qizig‘i, bu kitobning korrekturasi Hamid Olimjon bilan birga ko‘rib chiqilgan edi. Shu o‘rinda shoira: “*Mening boshimga tushgan kulfat umumiyo yo‘qotishlar oqimiga teng kelib qoldi. Mening qayg‘ularim umumxalq qayg‘usiga qo‘shilib ketdi. Atrofimdag‘ odamlar bu kitob nega muncha tez yozildi, deb hayron bo‘lishadi. Undagi satrlar shaxsan o‘z hayotimda ro‘y bergen voqealardan oldin yozilganini bilishmasdi*”, – degan edi. Ko‘rinadiki, shoira hayotida ikkinchi jahon urushi va shaxsiy hayotidagi o‘rni qoplanmas yo‘qotish bir davrga to‘g‘ri kelgan edi.

Adabiy suhbatlari shoiraning adabiy-estetik tafakkurini kuzatish, zamon va zamondoshlari haqida asosli va xolis fikrlarini aniqlashtirish imkoniyatini beradi. U Olga Ipatova bilan suhbatida: “*Men she'r yoza boshlagan yillar o'zbek she'riyati uchun o'zgarish yillari edi. Yangi hayotning eskilikni sindirishi va inqilobiy qayta qurishlar adabiyotdan ham yangi shakllarni talab qilar edi*”, – deya 30-yillar she'riyatiga ixcham va umumlashtiruvchi munosabat bildirib o'tgan. Zulfiyaning: “*She'rxon hamma vaqt haqiqiy she'rni yasama she'r dan, chinakam shoirni soxta shoirdan ajratib oladi*”, “*Endilikda o'zbek she'riyati obrazlilik va murakkablashish hisobiga boyimoqda*” kabi fikrlarida ham milliy she'r va she'rxonlik, undagi yetakchi belgilar hamda shoirlik masalasiga munosabati yaqqol ifoda etilgan.

Shuningdek, Zulfiyaning ocherknavis sifatidagi qirralari ustozি Oydin Sobirovaga bag'ishlangan “*Yorqin yo'lda*” va mashhur paxtakor Tursunoy Karimovaga bag'ishlangan “*Yoshlikning qulochi*” asarlarida yaqqol ko'rindi. Har ikki ocherk shoiraning “Kamalak” deb nomlangan saylanma kitobidan o'rinni olgan.

3. Tarjimalari. Shoira Zulfiya rus tilining bilimdoni sifatida ko'plab rus shoirlari, shuningdek, zamondosh rus va qardosh xalqlar adabiyoti vakillaridan barakali tarjimalar qilgan. Pushkinning “...*ga*” yo'sinda nomlangan she'ri ham Zulfiya tarjimasida o'zining go'zal ifodasini topgan.

Shoiraning uch jildlik saylanma asarlarida barcha she'riy to'plamida e'lom qilingan lirik asarlari qamrab olingan. Bu saylanma “*Shalola*”, “*Mushoira*”, “*Kamalak*” nomlari bilan 1985-86-yillarda nashr qilingan. Mazkur asarlar bilan ayni vaqtida ziyouz.com kutubxonasi saytida tanishish mumkin.

Zulfiya she'riyat maydonida o'z o'rniga ega bo'lgan davrdan boshlab uning bitganlarini ilmiy tadqiq etgan mutaxassislar ham yuzaga kelishgan. Adabiyotshunos Abdulla Olimjonovning “*Shoira Zulfiya*” (1952), Mashhura Sultonovaning “*Shoira Zulfiya*” (1965), “*Baxtli zamon kuychilari*” (1970) Adham Akbarovning “*Qalb kuychisi*” (1965), Laziz Qayumovning “*Zulfiya ijodi*” (1965; 1970) ilmiy tadqiqot va adabiy portretlarini shoira poetik dunyosi sirlarini kashf etishga qaratilgan. O'zbek ayol ijodkorlar orasida birinchi bo'lib xalq shoirasi unvoniga loyiq ko'rilgan Zulfiya ijodi Salohiddin Mamajonovning “*Zulfiya*” (1990, 1999), nomli ilmiy monografiyasi, Naim Karimovning “*Zulfiya*” ma'rifiy romani, Hotam Umurovning shoira ijodiy laboratoriysi jiddiy tadqiq etilgan “*Qo'shganot sehri*” (1982), “*Badiiy ijod mo'jizalari*” (1992),

“Sheriyat malikasi bilan g‘oyibona suhbatlar” (2004) kabi asarlarida Zulfiya ijodiga mansub asarlar atroflicha ilmiy tadqiq etilgan.

Zulfiya ijodiga xos qonuniyatlar tadqiq etilghan bir qator dissertatsiya ishlari yozilib yoqlandi. 1967-yilda N. Boboxo‘jayev “Zulfiyaning poetik mahorati”, 1982-yilda Suyunboy Karimovning “Язык и стиль произведения Зульфии (на материале поэзии)”, 2004 yilda Go‘zal Umurovaning “Zulfiya ijodi va rus adabiyoti (tarjima, tanqid, anglash)” mavzularida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yoqlangan dissertatsiyalari shoiraning ijodiga xos belgilarni tayin etishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Shoira Zulfiya ijodi turli ilmiy yo‘nalishlarda tekshirilgan. Ayrim tadqiqotchilar shoira ijodining ijtimoiy qirralariga, ba’zilari uning badiiyatiga, ayrimlari mavzulariga ustuvor ahamiyat qaratishgan chunonchi, adabiyotshunos Orif Ikromov o‘tgan asrning 50-yillarda shoira bitgan *Saodatning amerikalik xonimlarga javobi* she’rini ijtimoiy yo‘nalishda tadqiq etgan, uning badiiy va katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib bergan.

Zulfiya ijodini o‘rgangan Saydulla Mirzayev “XX asr o‘zbek adabiyoti” (2005) darsligida shoira ijodining asosiy xususiyatlarini atroflicha tushuntirib bergan.

3. Zulfiya ijodi haqidagi e’tiroflar.

Abdulla Qahhor. Zulfiyamiz ellikka kirdi (1965). Haq so‘zning kuchi. 1989, 231-bet:

Yozuvchning yoshini yirma-yiliga o‘lchab bo‘lmaydi. Yosh yilma-yiliga o‘lchanganida xotin kishining 50 yasharidan 18 yashari yaxshiroq bo‘ladi. Shoiraning yoshini adabiyotda bosgan qadami bilan o‘lhash kerak. Men Zulfiyaning 18 yashar chog‘ini bilaman. O‘sanda Zulfiya maftun qilgan bo‘lsa, 10-15ta yigitni maftun qilgan edi, xolos. Hozir adabiyotda 35ga kirgan shoiramiz she’r bilan aytgan achchiq-chuchuk so‘zları, qalami ostida pirqirab chiqqan kulgisi, qalamining uchidan tomgan g‘ussa tomchilari bilan butun respublikamizni, Ittifoq kitobxonlarini maftun qilib o‘tiribdi.

Baxtim shul o‘zbekning Zulfiyasiman. (“Guliston”, 2015, 1-son, 20-bet):

Mirtemir: “O‘zbek poeziyasida Zulfiya degan nomning chaqnab paydo bo‘lishi – tong yulduzining tug‘ilishiga teng voqeа bo‘lgani hanuz esimda, o‘sha tongning o‘ziday rost va yorqin bir haqiqat bu o‘zi! Chigalliklar, izlanishlar to‘liq bir pallada yangi va umidbaxsh bir sado, yoqimli bir jaranglab ketgan edi-da. Zulfiyaxonim she’rlarida tong timsoli,

tong tasviri, baxtiyorlik va yorug‘ dunyo timsoliday jaranglab ketganligi va hanuz o‘sandoq jaranglab turganligi hech kimga sir emas, hammasi faqat mehnatdan, uzuksiz mehnatdan!”

Islom Karimov: “Nafaqat o‘z she’rlari, balki butun hayoti bilan o‘zbek ayolining ma’naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham men fidoyi insonlar qatoriga qo‘sghan bo‘lardim. Uning jahon minbarlaridan yangragan she’rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she’riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”.

Marvarid Dilboziy, Ozarbayjon xalq shoiri: “Ajoyib tabiatli kishilarni ko‘rganda nodir inju topgan kishidek quvonaman, hayotni yanada qattiqroq sevaman, Zulfiya men uchun ana shu nodir inju va go‘zal kishilardan biridir... U o‘zbek xotin-qizlari chamanida go‘zal bir san’at binosi qurdi”

Asqad Muxtor: “Zulfiya va uning poeziyasini ayollar dunyosidan ajratib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, ayol qalbi – azaliy va abadiy mavzu. Lekin o‘zbek ayolining qalbini hali kashf etish kerak. She’riyat – hamma vaqt yangilik, shu bilan birga, u – hamma vaqt merosxo‘r ham. Navoiy ulug‘lagan ona qalbi zamonlar osha chek-chegarasiz bir olamga aylandi”.

Erkin Vohidov: “Hijron kunlarida” kitobi bilan o‘zbekning yurtida shoira tug‘ildi, ayol zotining fidoyilik va bardosh, jasorat va nazokat, umid va o‘kinch to‘la sadosi bo‘lib shoira dunyoga keldi va dunyoga kelgan kundan boqiyligini ta’min etdi”.

Abdulla Oripov: “Fazilatlar sarchashmasida Zulfiya opaning shoiralik iqtidori turar ekan, bu iqtidor shoiramiz nomini jahonga tanitgan oliy belgidir. Zulfiya opa suhbatlarida, maqolalarida o‘zlarini g‘oyatda kamtarin tutib, kam ijod qilganliklarini nadomat bilan aytib turardilar. Bu gaplar chindan ham kamtarlik va samimiyat bilan aytilgan. Lekin gap miqdorda emasligi barchamizga ayon-ku. Zulfiya she’riyati salmog‘i uning ancha murakkab yillarda ham chinakam poeziya sifatlariga sodiq qola olganligi bilan belgilanadi”.

Ibrohim G‘afurov. Nazm hammavaqt hur. (“Sharq yulduzi”, 1995, 3-4-son, 69-bet):

“Zulfiya kim, desalar, men, albatta, avvalo, bu – e’tiqod: she’rga, baxtga, go‘zallikka, insoniylikka, o‘z xalqining taqdiriga e’tiqod, degan bo‘lardim. Uning barcha yozganlaridan kelib chiqib va barcha she’rlarining toza zamiriga nazar tashlab, ehtimol boshqalar ham shunday

degan bo‘lardilar. Zulfiya e’tiqodi go‘zal va toymas insonlar qatorida turadi. E’tiqodning kuchi bilan u ixtiro qiladi. She’riy ixtiolar qiladi.

Bahorlar, tonglar, shaffofliklar haqida qancha she’r yozmasin, har bir birida bularni qaytadan kashf etadi, ularni hissiyotning yashnoq chamanlari bilan bezaydi.

Zulfiya uchun har bahor – ixtiro, har tong – ixtiro, har qalb – bir ixtiro, yo‘llar, umrlar – ixtiro...

...Uning insoniy e’tiqodi hamisha rasmiy-mafkuraviy e’tiqodlardan ustun turdi. Rasmiy-mafkuraviy e’tiqod shoir qalbini yenga olmadidi. Mafkuraviy zo‘ravonlik shoir so‘zini yengishi mumkin edi. Juda ko‘p shoirlar shunday rasmiy mafkura zo‘ravonligidan “yengildilar”. Lekin rasmiy zo‘ravon mafkura har qachon bir eng muhim narsadan ojiz qoldi: u milliy shoirlarning qalblarini, sog‘inchlari, asl a’mollarini yengolmadidi. U odamlarni o‘z qalblarining qa’riga cho‘kib yashashga majbur qildi. Lekin qalblarning qa’rini hech qachon egallay olmadidi. O’sha davrlarning eng yaxshi she’rlari ham, o’sha davr shoirlarining keyingi guvohliklari ham buni to‘la isbotlab turadi.

Zulfiya sakson yoshi arafasida “Xotiram siniqlari” deb atalgan ajoyib dostonini e’lon qildi. Agar o’sha davr haqida guvohlik bo‘lsa, shunchalar bo‘lar. Agar o’sha davr to‘g‘risida rostgo‘y so‘z bo‘lsa, shunchalar bo‘lar. U’tirof bo‘lsa, shunchalar bo‘lar. Tazarru bo‘lsa shunchalar bo‘lar...

Yetuk donishmandlik bilan yozilgan va har bir satridan buyuk faryod va buyuk armon saslari otlib turgan bu doston o’sha zo‘ravonlik davrlarida o‘z qalblarining toza qa’rlariga cho‘kib yashaganliklarini ko‘rsatadi”.

Ibrohim G‘afurov. Zulfiya siyomosi. (“Sharq yulduzi”, 2015, 1-son, 120-bet):

“Zulfiya she’riyatida mayinlikni uchratmaganman. Menga Zulfiya she’riyati boshdan oyoq qirrador bo‘lib tuyuladi. Bunda har bir so‘z, qosifa, ibora, jumla qirrador. Zulfiya chaqmoq tashbehiga tez-tez murojaat etadi. Nega? Chunki uning she’ri intuitiv tarzda qirradorlikka intiladi. Chaqmoq qirrador. Olmos qirrador. Ildiz qirrador. Bular qirrador bo‘lmasaydi, hayot degan narsani yaratmasdi. Zulfiya she’riyatida qirradorlik uning shaxsiyati bilan chambarchas bog‘liq holda tashqi ongdan ko‘ra ongosti hodisalari bilan ko‘proq bog‘liq. Bu hatto Zulfiyaning badiiy tarjimalarida, Lesya Ukrainka, Pushkin, Nekrasovdan qilgan tarjimalarida ham badiiy poetik shakl sifatida ko‘zga tashlanadi. Qayerdan bu qirradorlik? U po‘lat erituvchilar olis avlodlaridan, Muslim bobo, Isroil degrézdan o‘tib kelayotgan, tomirlarda oqayotgan tug‘ma

genetik bog'lanish. Badiiy qirradorlik oxiri 90- yillarda yaratilgan she'rlar va ayniqsa, "Xotiram siniqlari"da o'zini to'la badiiyat bilan namoyon etdi".

Anvar Eshonov. Jo'shchin mushoira etadi davom. ("Sharq yulduzi", 1995 3-4-son 70-bet):

"Zulfiya opam, bir qarasang, o'zbekning idrokiga o'xshaydi, bir qarasang, o'zbekning hijroniga o'xshaydi, goh sog'inch, goh vafosiga o'xshaydi. Muhimi – u o'zbekning xalqlar aro bo'yini o'lchagich shoirasi".

Qutlibeka. Dolg'ali dengizda kema suzmas jim. ("Sharq yulduzi", 1995 3-4-son, 72-bet):

"Odamlar nega Zulfiya opaga bu qadar intiladilar? Nega bu qadar ishonadilar? Menimcha, hayotda har kim o'zidan ko'ra bir necha bor kuchli odamga ko'proq intiladi. Balandlikka intiladi odam. Bu kuch imkoniyat bo'lishi mumkin, samimiyat, rostlik bo'lishi mumkin. Ba'zan hammasi bir inson qalbida jamlangan bo'lishi ham mumkin.

...ruhiyat ustoz nazdida mudom birlamchidir. Kimning ruhi nafsiga cho'rilik qildmasa, nafs oromi uchun yer bag'irlamas, o'sha shoir she'riyatga daxldordir. Hamisha ko'klarda yashasa, she'riyatga daxldordir. Umuman, tom ma'noda insonlikka daxldordir. Zulfiya opa she'riyatining lirik "men"i ana shunday kuchli shaxs. U doim "*ko'z yoshga ham boqay beyosh*" degan aqidaga tayanib yashaydi.

...Zulfiya ora davralarda hech kimni yomonlamaydilar, o'zlariga munosib ko'rmaydilar bunday noxushlikni. Ammo birovning fazilati haqida quvonib gapiradilar. Ayniqsa, she'rlarimiz ma'qul kelsa, ko'pchilik orasida o'qitib, faxrlanishni yoqtiradilar. Hatto yozganlari ma'qul kelgan ijodkorlarga, shaxsan tanimasalar-da erinmay munosabat bildirib, xat yozadilar.

Zulfiya opa juda andishali, hayoli, har bir so'zini yetti o'ylab bir gapiradigan inson edilar. Hikoyalar, maqolalar, ocherklar, eng kichkina maslahatlarda ham biror ibosiz, qo'polroq so'zlar bo'lsa, nihoyatda o'rinli tahrirlar kiritardilar. Sog'lik-salomatlilikka oid maqolalarda odobdan nari aytilgan biror nozikroq so'zdan keyin "ming uzr" deb qavs ichiga olib qo'yardilar. Inson munosabatlari pardali so'zlarda aks etishi kerak, har bir insonning his-tuyg'ulari ilohiy, muqaddasdir deguvchi edilar. Hech qachon xaxolab kulganlarini, birovni masxaralab, kansitganlarini ko'rmaganmiz. G'iybatni-ku umuman yoqtirmasdilar...

Zulfiyaxonim shaxsidagi buyuklikning yana bir ildizi ularning ustozlik maqomlari bilan bog'liq. Opa o'z davrida "yilt" etgan iste'dodi

ko‘zga tashlangan yoshlarning yurib kelayotgan so‘qmoqlarini katta yo‘llarga tutashtirgan inson. Ustoz nafaqat bizga “oq yo‘l” tilagan, nafaqat ilk she’rlarimizni mehr nazaridan o‘tkazib berganlar, balki har birimiz uchun o‘zlarini javobgar his qilganlar. O‘zlarini baxtimiz, sha’nimiz, shaxsimiz uchun ham javobgar deb bilganlar. Bu ustozlikning, ustozlik maqomining oliy belgisi bo‘lsa kerak”.

Sadoqat kuychisi. Damin To‘rayev. (“Sharq yulduzi”, 2015, 1-son, 122-bet):

“Shoira “Hijron kunlarida” turkumidagi she’rlari bilan o‘zbek she’riyatida yangi bir yo‘nalishga – inson hayotining fojaviy talqiniga asos soldi.

Shoiraning istiqlol yillaridagi ba’zi she’riy lahzalarida lirik qahramon qalbida sobiq tuzumdagи “hamma qonunlarning ustidan chizib” tashlash isyonkorligi yuzaga chiqsa, ba’zi misralarida “*Axtarib topardim har bosgan izim. Bekor o’tganiga baxsh etardim jon*”, degan afsus-nadomatlar yetakchilik qiladi. 1995-yilda yozilgan “Iqrorga vaqt yetdi” nomli she’rida shoira yana bir bor yashab o‘tgan umriga nazar tashlaydi. ...Mazkur asarlardagi poetik fikrlar “Xotiram siniqlari (1995) dostonida yana teran mazmun kasb etadi”.

Oydin Hojiyeva. Baxtim shul o‘zbekning Zulfiyasiman. (“Til va adabiyot ta’limi”, 2014, 11-son, 4-bet):

“Shon-u shuhratning yuksak cho‘qqilarida turgan shoiraning behad go‘zal samimiyyati, odamjonligi, kamtarligi meni hali hanuz lol qoldiradi. Bosh muharrir Zulfiyaxonimning maxsus qabul kunlari bo‘lmasdi. Ertaga keling, degan iborani yomon ko‘rardilar. Bayram arafasida barcha mashhur yozuvchilarimiz, albatta, u kishini tabriklashga kelishar, uzoq suhbatlashishardi. Shoira qizlarni, ayniqa, viloyatdan kelgan tortinchoq havaskor qizlarni darrov qabuliga chorlar, bag‘riga mahkam bosib, peshonasidan o‘par, mashqlarini o‘sha zahotiyoq o‘qib, tahrir qilib bo‘limga chiqarar, navbatdagi songa rejalahtirishni ta’kidlardi. Ilk she’ri o‘quvchilik kezlaridayoq Zulfiyaning oq yo‘li bilan “Saodat”da chop etilgan Halima Xudoyberdiyeva xalq shoiri bo‘lib, el mehrini qozondi. Maqsuda Egamberdiyeva, Muhtarama Ulug‘ova, San’at Mahmudova, Qutlibeka Rahimboyeva, Dilbar Saidova, Hayotxon Ortiqboyeva, Sharifa Salimova, Shahodat Isaxonova, Ra’no Rahmon, Guliston Matyoqubova, Xosiyat Bobomurodova, Rahima Shomansurova, Enaxon Siddiqova, Guljahon Mardonova, Gulchehra Rahimova, Zamira Ro‘ziyeva, Venera Ibrohimova, Dilbar Haydarova, Farog‘at Kamol kabi bugungi kun taniqli shoira va adibalarining ilk ijodlari “Saodat”da chop etilgan. Zulfiya opa

o'sha vaqtdayoq o'z yorqin iste'dodlari bilan maftun etgan Qutlibeka va Farog'atga oq yo'l yozib, "Mening quvonchlarim" deb atagandilar".

Bekmurod Yo'ldoshev. Shoira Zulfiya ijodi olimlarimiz talqinida. ("Til va adabiyot ta'limi", 2015, 20-son. 40-bet):

"Zulfiya asarlari tili – hozirgi zamон o'zbek adabiy tili, xususan, badiiy tili tarixida muhim hodisa sanaladi. Shoiraning badiiy tafakkur olamini, asarlaridagi poetik nafosat va ifodadagi go'zallikni butun bo'ybasti bilan tasavvur qilish uchun uning lug'at boyligi manzarasi ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'lishi lozim".

1-chizma

Zulfiyaning adabiy suhbatlari

"Yurtim xaritasi –
mening yuragim"
(Shoira Olga Ipatova
bilan suhbat)

"Hayot va so'z"
(Aleksandr
Naumov bilan
suhbat)

"Go'zallik
yashagan qalb"
(Anvar Jo'raboyev
bilan suhbat)

"Buyuk davrga
hamohanglik"
(V.Tyurikov bilan
suhbat)

2-chizma

Zulfiya ocherklari

"Yorqin yo'lda"

"Yoshlikning qulochi"

3-chizma

Zulfiya - xotiranavis

"Hayot varaqlari"

"U yashashni sevardi"

"Mirtemir yodi"

"Shoira bo'lib ulgurmadi"

1-topshiriq.

“*Hayot varaqlari*” va “*U yashashni sevardi*” xotiralari asosida Zulfiyaning Hamid Olimjonga bergen ta’riflarini aniqlang.

2-topshiriq.

Hadicha Sulaymonova haqidagi “*Shoir bo‘lib ulgurmadi*” xotirasini o‘qing. Zulfiya hayoti bilan olimaning mushtarak jihatlarini solishtiring.


3-topshiriq.

Siz Zulfiya ijodini o‘rganishda, avvalo, nimalarga e’tibor qaratish kerak deb bilasiz?

4-topshiriq.

Zulfiyashunos olimlar haqida nimalar bilasiz? Ular Zulfiya ijodining qaysi qirralarini yoritganlar.

37053



II BOB. SHOIRA IJODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Zulfiya she’riyatida poetik o‘ziga xoslik
2. Ayriliq va sadoqatning jo‘shqin kuychisi.
3. Birgalikda bosilgan yo‘llar.

Tayanch tushunchalar:

Obraz, obrazli tafakkur, obrazlilik, badiiy obraz, badiiy psixologizm, motiv, ilhom, mumtoz (klassik) asar, durdona (shedevr) asar, tendensiya, badiiy g‘oya, doston, ijodiy meros, lirika, maqola, ocherk, she‘r

1. Zulfiya she’riyatida poetik o‘ziga xoslik. Zulfiyaning she‘r va san‘atga qarashini tahlil qilish, uni o‘rganish shoira ijodi mohiyatrini teranroq anglash imkonini beradi. Uning ilk she‘ri texnikumda o‘qib yurgan chog‘lari yuzga kelgan. 1931-yil yozilgan “*Ozod qiz*” deb atalgan mazkur she‘r paranjisini tashlab boshiga qizil durra o‘rab ishlayotgan qizga bag‘ishlangan edi.

Men juda ozod qizman:
Zulmat nima bilmayman,
Fabrikaning qo‘ynida
Mehnat qilib yayrayman.
Tongda bong ursa gudok,
Turaman apil-tapil.
Ko‘kdagi oftob misol
Boshimda durram qizil.

Shoiraning she‘r haqidagi dastlabki qarashlari shunday shaklda bo‘lgan edi. Zulfiyaning ilk she‘riy to‘plami 1932-yilda uning o‘n yettigina yoshida nashr qilingan. Suning uchun ham to‘plamdagи boshqa she‘rlarning badiiy saviyasi ham yuqoridagi bitik darajasidan baland emas edi.

“*Qizlar qo‘shig‘i*” (1939) kitobiga kirgan she‘rlarida yoshlik davrining oniy lahzalari poetik misralarda aks etgan. “*Bahor kechasi*”, “*Bahor*” she‘rlarida faqat fasl emas, balki inson umrining bahori bo‘lmish yoshlik davri ham o‘z aksini topgan edi.

She‘r texnikasini hali puxta egallab olmagan Zulfiya Hamid Olimjonga: “*Nima uchun men yozgan she‘rning poyoni bo‘lmaydi, qaysi bandda to‘xtatmayin, yana davom ettirsam bo‘laveradi-ya*”, – deganida,

shoir: “Chunki sen har bir she’ringda bira to’la hamma gapni aytib olmoqchi bo’lasan, vaholanki, bunday qilish yaramaydi. Keyin bilasanmi, she’rni oxiridan boshlab yozish kerak”, – deya fikr bildiradi. Ularning ilk uchrashuvidan boshlangan bunday ustoz-shogirdlik munosabati bingalikdagi qisqa umrlari mobaynida to’xtovsiz davom etdi. Zulfiyaning xotirlashicha, Hamid Olimjon bilan yangi tanishgan paytlaridayoq shoir unga rus adabiyoti bilan oshnomisan? – degan savolni beradi. Asarning asl manbasini o’qish “butun muattarlikni, shiradorlikni his etish imkonini berish”ini aytib, shoiraga Nekrasovning to’plamini keltirib beradi. Chindan ham shoiraning ikkinchi to’plamdagagi ko‘philik she’rlar cho‘zilib ketgan, fikr tugalligi noma’lum she’rlari ham talaygina edi.

Zulfiyaning **“Hijron kunlarida”** (1944) she’riy to’plamidan boshlab, unda ohanglar turfaligi ko‘zga tashlanadi. Endi shoira she’rlarida soxta tuyg‘ular, shunchaki qofiyadosh tizmalar emas, hayotga keng va atoflicha qaray oladigan, teran nigohli ayloning fikr va tuyg‘ulari aks eta boshlaydi. Bu Zulfiyaning **“Hijron kunlarida”** she’rida aniq bo‘y ko‘rsatadi:

Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor,
Ketma, aslo ketma ko‘zimdan yiroq.
Garchi tushimda ham seni bir ko‘rish
Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq.

Zulfiya hijron motivini kengash (soviet) davrida baralla kuylashdan hayiqmagan jasorathi shoira edi. Negaki, hamma o‘z baxtini kommunizmdan izlashi shart qilib qo‘yilgan bir davrda u ayol o‘z baxtini oiladan izlashi, er, farzand baxti, sog‘inchi har qanday mafkuraviy qarashlardan baland turishini amalda ko‘rsata olgan edi. Gap faqat Hamid Olimjonning Zulfiya hayotidagi o‘rnini ko‘rsatishda emas, umuman, odam, xususan, ayol uchun baxt oilada ekanligini aytga olgan shoira edi u.

Zulfiya – farzand baxtidan alohida masrurlik tuyu olgan shoira. Uning **“Hulkar”** (1947) to’plamida mavzular kengayib borgani, oila va farzand alohida yo‘nalish darajasiga ko‘tarilganini ko‘rish mumkin:

U bor yerda qayg‘u va hasrat
Hayotingga begona ekan.
Qani, aytинг, farzandдан qimmat
Bu dunyoda nima bor ekan.

(“Farzand”)

Mana shu to'plamda tabiat manzarasi, fasllar go'zalligi alohida ta'rif-tavsfif qilinadi. *"Ikki maktub"*, *"Tun"*, *"Bahor keldi seni so'roqlab"* she'rlarida tabiat obrazzi bilan birga hijron ohanglari uyg'unlashib she'rlar markaziga chiqsa boshlaydi. Shoiraning "Yuragimga yaqin kishilar" to'plamida hijron ohanglari bo'rtib ko'rindi. Ayniqsa *"Kechir goldim, g'aflatda"* she'rida shoiraning ruhiy iztiroblari bo'rtiq aks ettiriladi. Bu she'rning yozilishi Hamid Olimjonning halokati bilan bog'liq edi. Naim Karimov "Zulfiya" kitobida bu voqeani batafsил bayon qilgan. 1944-yil 3-iyul kuni Hamid Olimjon Zulfiya bilan teatrga borishni rejalaشتiradi. Shoirni Do'rmondan aytilgan vaqtida kelishini kutgan Zulfiya uning vaqt o'tib ketsa-da, kelmayotganidan xavotirga tushadi. Negaki, Hamid Olimjon biror marta ham va'dasini buzmagan edi. Shu kuni Hamid Olimjon kelmaydi.

Koshki edi, men yoningda
Turgan bo'lsam o'sha dam.
Kirmasmidim men qoningga,
Bermasmidim jonni ham.

Bunday fojiaviy pafos odatda adabiy qahramonlar nutqiga xos bo'lardi, ammo Zulfiya o'zining kechinmalarini va ayni damda buyuk muhabbatini shunday izhor qila oldi.

Ajal degan beshqatga
Koshki otsam ishqimni.
To'ldirsam ham ko'kni dodga,
Saqlasam men baxtimni.
Koshki edi, so'ng qo'lingda
Erkalanib bersam jon.
So'nggi nigoh senda qolsa,
Men ko'z yumsam bearmon.

Shoira yor qo'lida erkalanib jon berishni hijronda qolishdan afzal ko'radi. Zulfiyaning umr yo'ldoshiga bag'ishlangan boshqa she'rlari ham g'amgin ohangi bilan o'zbek ayolining yoriga cheksiz sadoqatini namoyish qildi. U Abdulla Oripovning "Ayol" she'ridagi cheksiz mung va g'amni o'z hayotida kechirgan hayotiy timsol edi. *"Yuragimga yaqin kishilar"*, *"Sen qaydasan, yuragim"*, *"Ne baloga etding mubtalo"*, *"Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh"*, *"Hayot jilosi"*, *"O'rik gullaganda"* kabi she'rlarida bu ohang kuchayib boradi. Ayniqsa, *"Ne baloga etding mubtalo"* she'ri hijron motivida cho'qqiga ko'tarilgan she'r bo'lib qoldi:

Ko‘z ochgani qo‘ymaydi alam,
Boshim qo‘ysam kuydirar bolish.
Yupatolmas kitob va qalam,
Misralarim ko‘tarar nolish.

Zulfiya idodida ayollar obrazi alohida o‘rin tutadi. Aniqrog‘i shoiraning xotin-qizlarga bag‘ishlangan asarlarida o‘zbek qizining o‘ziga xos tasviri chiziladi. Shoiraning “*Hormang, qizlar*” she’ri, uning o‘ynoqi vazni shoira lirikasida turli-tuman ohanglar uyg‘unligini ko‘rsatadi. “*Lobar qizlarga*” she’ri ham shoira ijodida alohida ajralib turadi.

Zulfiyaning o‘xshatishlarga boy, kontrastlardan go‘zallik yarata olgan she’rlaridan biri “*Qor*” she’ridir.

Olcha guli bargiday
O‘ynab uchib yog‘ar qor.
Ajab gulga qarayman.
Ko‘zimda yashnar bahor.

Shoira qish va bahorni o‘zaro solishtirib ta’riflar ekan, ularni bir-biriga zamin o‘laroq qiyoslaydi. Qor parchalarida bahor gullarining go‘zalligini ko‘radi.

Daraxtlarning shohida
Qor yashnaydi xuddi gul.
Qiya tepaliklarning
Yaxida yaltirar ul.

Zulfiya qor sababli bolalar ko‘nlida paydo bo‘lgan shodlikda bahor nafasini tuyadi, olmosday qor tagidan ko‘rkam bahorning kulib turishi kitobxoniga zavq bag‘ishlaydi:

Yosh-u qarisi bari
Dilida qordan viqor.
Olmosday qor tagidan
Kuladi ko‘rkam bahor.

“*Yuragimga yaqin kishilar*” to‘plamidan o‘rin olgan yana bir she’ri “*O‘g‘lim sira bo‘lmaydi urush*” deb nomlanadi”. Yaponiya taassuroti asosida yozilgan she’r yapon musibatini emas, o‘zbekning qayg‘usini ham o‘zida muhrlagan edi.

Urush! Noming o‘chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko‘p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Shoira umuminsoniyat fojiasida o‘z shaxsiy fojiasini ham ko‘ra oladi, uni umumfojia qobig‘i ostida tasvirlay biladi. Ayni damda o‘g‘illi yurt, o‘g‘li bor xonadon boydir degan o‘zbekona qarashni she’rga singdira olgan:

Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,
Ona bo‘lib mehrimga oldim.
Mana yurtga o‘g‘il o‘stirgan
Bir badavlat boy bo‘lib qoldim.

Zulfianing “*Gullarim*” kitobidan bolalarga atalgan hamda o‘z farzandlariga bag‘ishlangan she’rlar joy olgan. Ular bilan tanishish asnosida shoira “*gullarim*” deganda farzandlarini nazarda tutganini ilg‘ash mumkin bo‘ladi.

Zulfiya she’rlarida bot-bot bahor fasliga murojaat qiladi. Ehtimol, bu uning bahor faslida tug‘ilgani bilan bog‘liqdir. Balki Hamid Olimjon ijodidagi ko‘klam shukuhini she’rlarida akslantirish orqali an‘anani davom ettirgani bilan bog‘liqdir. Shoira juda ko‘p o‘rnlarda bahorga, ko‘klamga, o‘rik guliga murojaat qiladi. Bu obrazlar uning kayfiyatini ochib beruvchi timsollarga aylangan. Kuzatilsa, u bahorning kelishida hayotning yangilinashini ko‘radi:

Sindi qish to‘qigan muz hisli nafas,
Mana yana qushlar chug‘urlab qoldi.
Ona nigohiday muloyim nafas
Zamin-u osmonni bag‘riga oldi.
Demak, bahor keldi.

“*Hayot varaqlari*” deb nomlangan xotirasida shoir bahor fasli haqida to‘xtolib shunday deydi: “*Ba‘zilar yilning to‘rt faslini ham bahor bo‘lishini xohlaydilar. Menimcha, unda bahor bilan uning kelishi bu qadar shirin tuyulmas edi. Odamzod bahorga bu qadar intiq bo‘lmas edi. U yilda bir bor kelgan fasl bo‘lgani uchun shu qadar suyukday, tansiqday*”.

Zulfiya she’rlari “juvon kun”, “oltin kuz – atlas bir fasl” kabi kutilmagan tasvir-u tashbehlarga boy. Mazkur bandda ham homila tuproq

To‘lishgan tanini oftobga solishi bilan jarangdor kurtaklarning tobga yetishi dehqon qulog‘iga tanish qo‘ng‘iroqday chalinadi:

Hamisha ne‘matga homila tuproq,
To‘lishgan tanini solmish oftobga.
Dehqon qulog‘iga tanish qo‘ng‘iroq,
Jarangdor kurtaklar yetibdi tobga.
Demak, bahor keldi.

Zulfiya fasllar tasviriga falsafiy ma’no yuklaydi. Uning “*Dalada kuz*” she’rida kuzning “*onaday saxiy, bir ta’masiz yurtday hosilini hejunbush to‘kib*” yotganligi manzarasi o‘lka qiyofasi tasviriga o‘zgacha shukuh bag‘ishlaydi.

Ayol baxti!
Menday ayol baxtiga
Taqdir malikani ko‘rganmi loyiq?
Xalq mehrida yorman, el shuhratiga,
Baxtli ayol desa haqli xaloyiq.

Bu satrlar oniy lahzalarda tasodifan tug‘ilib qolgan emas, balki shoiraning asl hayotiy pozitsiyasining qonuniy mahsuli edi. “*Men yor edim, ishq o‘radi o‘yimni, Erka dilning to‘lqiniga qulq sol. Sen biyronsan, lekin mening kuyimni Ko‘rki bo‘lgan sadoqatdan saboq ol*”, – deya o‘zining sabriga tahsin aytgan shoira Gulgina Zokirovaga bag‘ishlangan “*Kuylama hijronni*” she’rida “*Kuylama hijronni, men kuylab bo‘ldim. Nahot men yetmagan pardasi qolmish? Achchiq, uzun yo‘lin men bosib o‘tdim. Senga nega darkor, qayta yo‘l olish*”, – deya ayrliliqning yo‘li uzun, ta’mi achchiq ekanidan saboq bergen edi. Shoira suhbatlaridan birida: “*Men toq yashashni ayol tugul, hatto qushlarga ham ravo ko‘rmayman... Ijodkor ayolga oila, hurmatli, muhabbatli oila hech qachon halal bermaydi. Faqat undan ikki hissa ko‘p fidoyilik talab etiladi. Agar kimning yuragi shunday fidoyilikka qodir bo‘lmasa, bittasidan voz kechgani ma‘qul. Tabiiyki, men ona sifatida hech kimga oila, farzandlaridan kechishni maslahat bermayman*”¹, – degan edi. Ayol ijodkorning mana shu fikrida buyuk bir insoniy falsafa mujassam.

Shoiraning hayot yo‘lidan chiqarilgan saboqlar, qaysidir ma’noda, ijodmi, oila deya ikki yo‘l o‘rtasida turgan ijodkor ayollar uchun tanlov yo‘li ham edi. “*Bir faryod ming dilni etadi pora, Ko‘z yosh bo‘lib oqdi*

¹ Umurov H. Tahlil chizgilari, –T.: Muharrir, 2013, 310-b.

borlig ‘im butun”, – deya yozg‘irgan shoira oradan bir yil o‘tib, hijronni baland pardada kuylash o‘zini pora-pora qilganini “*Shoshma, hali*” (1983) she’rida baralla aytadi:

Hali boshda,
Hali chakkam,
Hali keksa ko‘kragimning
Yillar tuzi tax-tax.
Ming tax qatlarida
Dardning basir,
Eng og‘iri,
Eng sabili –
Tarang asab
Jonli asab zo‘rg‘a turgan iplarida...

Ayol o‘zini qancha metin irodali ko‘rsatsa-da, uning nozik va zaif hilqat ekanligi ayon haqiqat. Bu yaratiq hamisha himoyaga, ayovga muhtoj. Zebo Mirzayeva bir o‘rinda: “*Menga farishtalar taxtini emas, ayollik baxtini bergen, xudoyim*” deganida, ehtimol shuni nazarda tutgan edi.

Zulfiyashunos olimlar, shogirdlar uning metin irodasiga alohida tahsin aytadilar. Shoira o‘zini hech qachon mungli qiyofada ko‘rsatmaslikka harakat qilgan, bemor holida odamlarga ko‘rinishni istamagan mag‘rur shaxs edi. Uning: “*Men o‘zimni yomon ko‘raman, Zaifligim kelganda hokim. Men o‘zimni yomon ko‘raman, To‘kar bo‘lsa shu his ko‘z yoshim*”, – degan satrlari ham fikrimizni isbotlaydi. Zulfiya o‘zbek she’riyatida o‘z ovoziga ega bo‘lgan shoiradir. U shaxsiy dardlariga ijtimoiy qiymat baxsh eta oldi. O‘zgalar baxtida o‘z baxtini topa bildi. “*Baxtim bor ajoyib kishilar aro: Tug‘ilib gurkirab keksayar umrim. O‘salar baxtimga baxsh etgan sado, Hayotim yo‘lini yoritgan nurim*”, – tarzidagi misralarda hech bir mubolag‘a yo‘q edi.

Zulfiya Osiyo-Afrika yozuvchilari doimiy byurosining Tokioda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari sessiyasi xususida so‘zlab shunday degan edi: “*Yaponiyalik do‘stimizning gulduros olqishlar to‘lqinida butun mamlakatga yoyilib ketgan so‘zlari hamon xotiramda. Mashhur yozuvchi adabiyotni hayotdan ajratishga intiluvchilarning soxta nazariyalarini tamoman yo‘qqa chiqarib otashin haqiqatdan so‘zлади. “Adabiyot hayot demakdir, hayotni aks ettirmaydigan adabiyot hech qachon insonga xizmat qilmaydi. Chunki hozir hayot mustaqillik, ozodlik uchun, yaxshi hayot va*

tinchlik uchun kurashdan iborat”, – dedi u”. Bu fikr Zulfiyaning o‘z muqayosiya nazariga ham to‘la mos kelar edi.

Shoira “O, ijod” degan she’rida:

Misraga dalalar nafasi shovullab kirmasa,
Insonlar yuragi lovullab turmasa,
Na davr,
na mehnat,
na shodlik qalamni surmasa,
Bir puldir mehnat-u dard-u she’r ,
tun umri...”,-

deya ijodni hayot, undagi muammolar bilan chambarchas bog‘liq ko‘rishini qayd etgan edi.

Zulfiya adabiyot haqida bo‘lib o‘tgani bir ijodiy bahsda shunday degan edi: “*Shoir qalbining, intilishining xalq dili va orzusi bilan tutashligi uning she’riyatidagi grajdaniqlikni keltirib chiqaradi. Bu faqat publitsistik she’rlarda yoki siyosiy asarlarda namoyon bo‘lib qolmaydi. Hatto chuqur intim lirika ham grajdaniqli ruhi bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Asosiy gap yozuvchining hayotiy pozitsiyasidadir. Haqiqiy shoir hamisha o‘z davriga hamohang, zamondoshlarining his-tuyg‘ulari va fikr-o‘ylariga hamdam bo‘lib yashaydi*”.

Zulfiya qaysi mavzuda yozmasin ularni o‘zidan kelib chiqib, shaxsiy qarashi, dardi sifatida talqin qildi. Zulfiyaning adabiy-estetik qarashlari uning suhabatlaridan tashqari, badiiy asarlarida ham ko‘zga tashlanadi. Shoirlilikning bosh siri nimada deb o‘ylaysiz? Yangi tashbehlardami, metaforalardami? – deb berilgan savolga Zulfiya: “...shoirlilikning bosh siri – sikrda, g‘oyada! Butun vujudingni tug‘yonga solib: “Bugun aytmasang, halok qilaman!” – deb qalbingda hayqirib turgan fikrda”, – deb javob bergen edi. Shoira o‘z ijodida ham mana shu fikrlariga amal qilib yashadi.

H.Umurov shoira haqida yozgan “O, ijod, dardginam” maqolasida Zulfiyaning she’r, she’riyat to‘g‘risidagi qarashlarini muayyan tizimga solgan. Shunda ma‘lum bo‘ladiki, Zulfiya birinchi galda she’r – tuyg‘ular farzandi ekaniga urg‘u beradi. “*Bilasizmi, she’rdagi tuyg‘u bir lahzalik, oniy bo‘lsa ham, u uzoq yillar bashorati bo‘lishi zarur. Katta, yorqin gaplarni qog‘ozga tushirmoq darkor. She’r zinhor bir kishi uchun yozilmaydi. U faqat o‘z “hasratnomangiz” bo‘lib qolsa, endi bu poeziya emas-da! No‘noqlik bu... Kimlarningdir iztirobi, o‘ylari, o‘rtanishini xayolingizga payvand qilib yubormasangiz, u ko‘pchilikning dardiga*

*aylanolmaydi*². Shoiraning e'tirofi qanchalik haqqoniy ekani uning hijron mavzusidagi she'rlarida yana-da ochiqroq ko'rindi.

Shoira nazarida she'r oldinda yashamog'i lozim. She'r insonni yashashga, mehnat qilishga, mashaqqat va to'siqlarni yengib o'tishga yollamog'i zarur. She'rning zamonaviylik sifatini shoira uning yurakdan yurakka ko'chib borishida, deb biladi. Samimiy qalb tuyg'ulari singmagan she'r uzoq yashamaydi:

Hayot kitobimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
Tabassum o'mida kuldim charaqlab.
Suyish kerak bo'lsa – telbacha suydim.

Zulfiyaning "*Men o'tgan umrga*" (1973) deb boshlanuvchi she'rida o'zining bosib o'tilgan umr yo'liga nazar tashlaydi, undagi har bir satr shoira hayotining muhim bir jihatini aks ettirgan. Aniqrog'i, siqiq ifodada bilan shoiraning bir umrlik hayoti taftish qilingan.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,
Izzat nima — bildim.
Shu-da bir yashash!..

Nafaqat adabiyot va she'riyatga muhabbat qo'yish, balki shuning ortidan obro' topish, suyish-suyilish, erkalash-erkalanish, ayrilish va kuyish, izzat-hurmat ko'rish, ya'nikim, bir ayol ko'rishi, bosib o'tishi mumkin bo'lgan yo'lni bosib o'ta olishni yashash tarzi o'laroq qabul qilgan, umr mazmuni deb bilgan shoira o'z hayoti haqida shunday o'ylar edi.

Shoiraning she'rlari o'ychil, vazmin. Uning she'rlarida fikr tig'izligi, falsafiy teranlik yetakchilik qiladi. Balki bu shoiraning turmush tarzi, hayot haqidagi konsepsiyalari bilan bog'liq bo'lgandir. Ehtimol, shoira she'rlarining murakkabligini ham shu bilan bog'lash kerakdir. "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" kitobida shoira Zulfiyaga ajratilgan bobning muallifi akademik S.Mamajonov shoiraning shunday iqrorni keltiradi.

² Umurov H. Tahlil chizgilari. –T.: Muharrir, 2013, 309-b.

“She’rim ravon bo’lsa, qulogqa yaxshi eshitilsa, uni o‘qigan odam mumkin qadar tez tushunsa, she’rim aniqlik va raxonlik kasb etsa deysan. Ammo ikkinchi tomondan, she’riyat shunchaki so‘zlardan iborat to‘rt amal emasligini, she’riy algebra – obrazlilik uning negizini tashkil etishini yillar o‘tgani sayin tobora chuqurroq anglab boraverasan”. Shoira fikrlar, hislar bilan bir-biriga murakkab ravishda bog‘langan hayot hodisalaridan olgan taassurotlarini she’rga singdirishi, kitobxon esa ana shularni topib estetik zavq tuyushini she’riyatning asosiy estetik prinsiplari sifatida baholaydi.

Shoira she’rni o‘ziga yarasha istioralar iqlimini yaratib, uni mavzuning shu she’rdagi yo‘nalishi, shu she’rdagi hissiy kayfiyat bilan bog‘lash, deb tushunadi:

Bahor qo‘ynidaman,
Yo‘l bo‘yidaman.
Cheksiz kengliklarning ko‘ksida lola –
Naq anor donalar sochiq yashnaydi.
Lola sayrimizni buzish o‘yida
Quyib berdi jala,
Toshdi shalola,
Tabiat shu dam naq o‘ktam, shum bola,
Ufqdan ufqqa ko‘prik tashlaydi.

Tabiatning shum bola kabi ufqdan ufqqa ko‘prik tashlashi o‘ziga xos istiorani yuzaga keltiradi. Shum bolani ko‘z oliddiga keltirgan kitobxon tabiatni shum bolaga o‘xshatilishidan zavq tuyadi. Shoira “siyqa iboralardan nariroq turib” ixcham istioralar yaratish deganda shu kabi obrazli ifodalarni nazarda tutganligi aniq. *“Men bu she’rlarga o‘z ruhiy tariximning bir parchasini joylashtira boshladim”* – deb yozgan edi Zulfiya.

Zulfiya she’riyatida uning adabiy-estetik qarashlari yorqin aks etadi. Shoira bir o‘rinda: *“Nazаримда, shoirlar o‘z tarjimayı hollarını o‘masliklari joiz. Negaki, shoirlar haqida she’rlari tavsiif beradi, ular huqida hamma narsani aytib bermasa ham, ijodlarida hayotlarining ko‘philik tomonlarini sharh etib berishga qodir she’rlar bo‘ladi”* – deb yozgan edi³. Bu iqror ijodkorning har bir asari uning hayotidan beixtiyor olinigan bir lavha ekanini anglatadi.

Zulfiya uchun she’riyat hayotining asosiy mazmuniga aylanib ko‘lgan. U har bir she’rida o‘z umrini ko‘radi va o‘zgalarga ham ta’sir

³ Farimov N. va bq. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1999, 354-b.

etadigan yo'sihda ko'rsatadi. Shoiraning: "She'riyat! Bu hayotimning barcha sahifalari, azizdan azizim, og'rig'im, shodligim, sodiq do'stim, sirdoshim mening. U hammaga aziz..."

She'riyat – insonning ma'naviy ehtiyoji... She'r – bu chaqmoqday oniy tuyg'u. Uning suvratini chizib ulgursang – ulgurding, yo'qsa yetmish ikki tomiringga sim-sim og'riq solib yuraveradi...

Shoir faqat buguni uchun shoir bo'lsa, bo'limgani yaxshi!" – tarzidagi iqrorida shu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, o'ziga xos quyma fikrlar, topilmalar, kutilmagan tashbehtar, ba'zan she'r ritmini o'zgartiradigan ohanglar borligi e'tiborni tortadi. Mana shu o'ziga xoslik shoira poetikasida alohida ajralib turadi. Shoira o'z so'zi, o'z ohangi bo'lishiga kuchli e'tibor bergen. G'afur G'ulomning qizi Olmos Zulfiya haqidagi xotirasida shunday fikr bildiradi: "Hayot menga ulug' kishilar davrasida o'sib ulg'ayishni nasib etdi. Endi u zotlar abadiyatga bosh qo'yib ketishganda ular haqidagi ajoyib, betakror xotiralarni Sizlar bilan bo'lishgim keldi.

1957-58-yillar bo'lsa kerak. Men talaba edim. Kuz fasli edi. Dadam biroz betob bo'lganlari sabab shifoxonada davolanayotgan edilar.

Ayam dadam yoqtiradigan lochira somsa yoptilar-da, meni dadamlarni ko'rgani yubordilar. Dadam yolg'iz ekanlarlar. Men ko'rishdim, dadam ayamlarni, ukalarim, uydagilarni so'ragach:

– Bor, Zulfiya xolangni aytib chiq, birga choy ichaylik, – dedilar. Zulfiya opa ham shu yerda davolanayotgan edilar. Men u kishining xonalariga kirganimda xursand bo'lib, o'z qizlaridek qarshiladilar. Bag'rilariga olib o'pib, uy ichilarimizni, ayamlarni so'radilar. O'qishlarim bilan qiziqdilar. Men Hulkar, Omonni, Komila ayamlarni so'radim. Birga dadamlarni "lyuks"lariga kirdik. Choy damladim, birga suhbatlashib o'tirib, lochira somsa yedik. Dadamlar Zulfiya opamlarga ilinganlarini aytdilar.

So'ng yotoqxonadan qalingina daftar olib chiqdilar-da:

– Zulfiyaxon, o'qib chiqdim, juda yaxshi, falsafiy fikrlari ko'p, – dedilar-da, yana:

– Endi o'zingiz menga o'qib bering-chi, dedilar.

Zulfiya opa:

– Hammasinimi? – dedilar.

Dadam:

– Faqat belgi qo'yganlarimni, – dedilar.

Zulfiya opa sekin-sekin faqat o'zlariga xos vazmin ovoz bilan o'qiy boshladilar, bir joyda to'xtab:

- G‘afur aka, manavi misraga belgi qo‘yibsiz.
- Ha, Zulfiyaxon, ayollar bunday demasalar kerak, ayollar yumshoqroq so‘z ishlatadi shekilli...
- G‘afur aka, to‘g‘ri belgi qo‘yibsiz, mana bunday desam-chi, deb bir ikki bir-biriga o‘xhash iboralarni aytdilar, dadamlar:

 - Bunisi yaxshi, – dedilar.

Yana bir she’rga dadam bir iborani kiritmoqchi bo‘ldilar.

Zulfiya opam:

 - G‘afur aka men bunday demoqchi edim, – dedilar.
 - Nega shunday demadingiz yoki demoqchi ekaningizni o‘quvchi o‘zi bilib oladimi? – dedilar-da ikkalalari kulib yuborishdi.

Zulfiya opa:

- Aytmuoqchi bo‘lgan gapimni har bir o‘quvchimga bir-bir aytib chiqaman-da, – dedilar hazilni davom ettirib.

Yana she’r ustida bahslashdilar. So‘z tanlashda Zulfiya opa bo‘sh kelmasdilar:

- G‘afur aka, men agar Siz aytgan so‘zni ishlatsam, she’rimning ma’nosi yana ham chuqurroq bo‘lar, lekin unda mening she’rim Sizning she’rlaringizni eslatib qoladi-ku, dedilar-da, o‘zлari ishlatishi mumkin bo‘lgan yana bir nechta qofiya so‘z aytdilar. Men dadamlar Zulfiya opaning so‘zlarini ma’qullaganlarini sezdim. Zulfiya opaning jur’atlariga qoyil qoldim”.

Zulfiyaning xotiranavis sifatidagi faoliyati, ocherk va suhbatlari ham uning ijodida salmoqli o‘rin tutadi. Uning xotiralari shoiraning ulkan publitsistik mahoratga ega bo‘lgan ijodkorligidan dalolat beradi. Albatta, shoira xotiralari orasida Hamid Olimjonga bag‘ishlanganlari alohida salmoqqa ega. Zulfiya xotiralari orqali Hamid Olimjon shaxsiyatiga xos jihatlarni yaqqol ko‘rsata bilgan. Davrining ko‘zga ko‘ringan shaxslari haqida, ular nafasini his qilib qalam tebratishning yuki og‘ir. Shu ma’noda xotiranavis har bir bildirayotgan fikrini taroziga solib, ortiqcha pafosga berilmay ifoda etsa, bu xotiralar o‘qirmanlar ko‘nglidan joy oladi. Shoira Mirtemir, mashhur o‘zbek ayoli Hadicha Sulaymonova, ustozi Oydin Sobirovalar haqida jo‘sib yozar ekan, u aks ettirgan manzaralar, kitobxon shuuriga ko‘chadi. Ayniqsa, Hadicha Sulaymonovaning matonatlari va sharafli hayoti haqida bu qadar injha tasvirni ayol qalbining mutaxassis Zulfiya maromida bera olgan. Muallif qahramoni dard-u o‘ylarini o‘zining dard-u hasratlari bilan uyg‘un ko‘radi. Umuman, Zulfiya barcha

⁴ Olmos. Zulfiya opam // Jahon adabiyoti, 1998, 2-son. 165-166-betlar

bitganlarida shaxsiylashgan ijtimoiy dard katta o‘rin tutadi. Balki uning mashhurligi ham o‘zgalar dardini his qila olganida, qalb prizmasidan o‘tkazib o‘zgaga taqdim qila bilganidadir.

Shoiraning adabiy-estetik qarashlariga xos qirralar uning publitsistikasida ham ancha yorqin ko‘zga tashlanadi. Uning bu janrdagi bitiklarida shoiraning shaxsiy fazilatlari ham yaqqol namoyon bo‘ladi. “...*shoir ko‘p narsalarni – fikrlar, hislar, bir-biri bilan murakkab ravishda bog‘langan hayot hodisalarini – she‘rga singdiradi, kitobxon esa ana shularni topib mag‘zini chaqishdan estetik zavq oladi*”, – deydi bir o‘rinda (**“Hayot va so‘z”**. Aleksandr Naumov bilan suhbat). Zulfiya suhbatlarida suhbatdoshlarining ba’zan ayamay berayotgan noqulay savollariga ham bosiqlik va teran bilim bilan o‘rinli javob qaytarganini yaqqol ko‘rinadi. Bu shoiraning keng fikr sohibasi, katta hayotiy tajribasi, mumtoz adabiyot va xalq og‘zaki ijodi, rus va zamondosh dunyo adabiyoti bilan chuqur tanishligi, rahbarga xos salobati bilan belgilanadi.

Shoiraning asosiy fazilatlaridan biri shogirdlariga yaxshi ustoz bo‘la olgani, ularni ijodiy kamolotga yo‘llagani bilan ham ko‘rinib turadi. U ustozlari va zamondosh yoshlar ijodiga xolis baho beradi. Kerak bo‘lsa shoiraning bergen baholari bilan o‘sha ijodkorning qiyofasi yarq etib ketadi. Buni Hamid Olimjon, Oybek, G‘afur G‘ulomga bergen bahosidan ham bilsa bo‘ladi: “*Oybek chuqur xayolga botgan, ohista harakat qilishi o‘ziga xo‘p yarashgan, doim jonini jabborga berib ishlaydigan odam bo‘lsa, G‘afur G‘ulom shartta-shartta she‘r to‘qib yuborishdek deyarli beandoza iste’dodga ega bo‘lganligidan, uning hamma narsani o‘z bag‘riga singdirishga qodir to‘lib-toshgan, past-baland misralari ham sirtdan qaraganda huddi o‘ziga o‘xshar edi: G‘afur G‘ulom ongida charx urgan fikrlarni birvarakayiga aytib olishga oshiqqani uchun ishga birdan yopishib, uni bir o‘tirishdayoq tugatib qutulishga odatlangandi. Shuning uchun ham she‘rlarini birovga ayttirib turib yozdirishi ham mumkin edi. Men boshqa bunday shoirni bilmayman*” (**“Hayot va so‘z”**. Aleksandr Naumov bilan suhbat). Ustozlari tajribasidan saboq olgan shoirha keyingi zamon shoirlariga ham munosib baho bera oladi. Xususan, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov haqida fikr bildirib, shunday deydi: “*Vohidov ma‘lum shaklga kirgan, tiniq she‘riyat sarpardasida galam tebratardi, bunda hissiy ravshanlik aqliy asosdan kelib chiqadi, har bir so‘z esa bamisol linzadek sayqal olgani uchun hayotni kutilmagan tarzda kattalashtirib ko‘rsatadi...*

...*Oripov yosh bo‘lishiga qaramay, voqelikka keng, dadil nazar bilan qaraydi va hamma narsa haqida sodda qilib, o‘z tili bilan so‘zlab*

berishdek noyob qobiliyatga ega. Uning tili xalq nutqining durdondalariga boy ho 'lganligidan aniq, goho sal betakallufroq va juda ham ifodali. Meni quvontirgan narsa shuki, Abdullaning deyarli har bir she'ridan xoh uzun, yoh qisqa bo 'lsin – o'zing istagan ezgu misrani, ruhingga ta'sir qiluvchi yangi gapini topasan. Afsuski, buni hamma shoirdan ham topib ho 'lavermaydi ("Hayot va so'z". Aleksandr Naumov bilan suhbat). Erkin Vohidov va Abdulla Oripov ijodlari shoiraning doimiy diqqat markazida bo'lgan. O'zbekning bu buyuk shoirlariga o'z vaqtida katta ehtiromini ko'rsatgan.

"G'ami ham, quvonchi ham she'rida" nomli maqolasida shoir Abdulla Oripov ijodini sinchkovlik bilan kuzatishi ma'lum bo'ladi. Shoirlik uchun muhitning o'rni muhim, ammo avvalo, "...shoirlik uchun iqtidor kerak, Abdullada shubhasiz tug'ma iste'dod bor". "Adabiyotimizning tomir-tomiri azal-azal xalq tomiri, el tomiri bilan tutash... Hamza, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Oybek... Abdulla ana shu ustozlar yo'lidan yurdi. Abdulla o'zidan iz qoldirib yurdi", – deya Abdulla Oripov ijodiga yuksak baho berdi.

Zulfiya ijodida, shubhasiz, ayol ijodkorlarga munosabat, ayol obrazini kuylash, ayol dardi bilan yashash she'riyati va publitsistikasining asosiy mavzularidan biri edi. Buni ko'plab shogirdlariga bergen baholarida, yozgan so'zboshilarida kuzatish mumkin. Zukko ustozning o'z davrida shogirdlariga bergen bahosi yillar o'tgach o'zining tasdig'ini topdi. Zulfiya o'ziga va o'zgalarga talabchan shoira bo'lgan. Uning juda nozik tabiat sohibasi bo'lganligini u haqdagi xotiralardan ham bilish mumkin.

Tarjima masalasida ham shu fikrni aytish mumkin. Zulfiya rus shoirlaridan ko'pchilikning asarlarini tarjima qilgan. Albatta, bu o'rinda ham sobiq ittifoq miqyosidagi ko'plab ayol shoiralardan tarjimalar qilganini ham alohida ta'kidlash kerak. Shoira tarjimon sifatida o'zi va boshqa salaflari faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratgan.

Shoiraning A.Pushkin, M.Lermontov, Q.Quliyev, M.Karim, Marvarid Dilboziy, S.Kaputikyan, T. Qayipbergenov, Yanka Kupala, Yakub Kolas, Yevdokiya Los, Nina Taras, Ede Ognesvet singari bir qator ijodkorlar haqida yozgan adabiy maqolalari adiblar ijodi mohiyatini ocha bilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Mustay Karim haqida bildirgan fikrlaridan Zulfiya uchun san'atkori ma'naviyati va ijodi uyg'unligi muhim ekanligini ko'rindi: "Agar birov "Yaxshilik nima? – deb so'rasa, men darhol Mustay Karim, – deb javob beraman. Aql-idrok

nima desalar ham men u kishining ismini takrorlardim. Ilhom, nazokat, qat’iylik – barcha yaxshi fazilatlar sharhini so’rayverishsin, men Mustay Karimni aytaverardim” (“Qalblarga toshqin bo’lib kirayotgan ovoz”). Darhaqiqat, boshqirdistonlik Mustay Karimning isyonkor bitiklari yosh o’zbek shoiri Shavkat Rahmon nolalariga hamohang edi:

Xalqim qashshoq yashab ko‘p zamon,
Hech birovdan ehson kutmagan.
Qilich tutgan, tutgan u qalqon,
Yelkasiga lan’at ortmagan.
Belga qilich osgan-u, ammo
Bir elni ham etmagan u zabt.
Qurol bilan kirgan har bir yov,
Qurol bilan etilgandir daf.

Zulfiyaning Mustay Karim ijodiga muhabbatি baland bo‘lgan. Uning ko‘p she’rlarini tarjima qilib, o‘zi yodlab ham olgan edi. Mustay Karimning “Oy tutilgan tunda...” dramasini shoira bir zarb bilan tarjima qildim,— deb yozadi. Mana shu asardagi:

Qullar bo‘lib yashashdan ham qullik yomon,
Yerimizda qullar bitar biror zamon.
Qullar bitar ruhimizga podsho bo‘lib,
Dilimizga taxtin qurib qolar hamon...
O, ruhlarni kishnalagan qullik yomon

satrлari shoirani hayajonga solgandi. Shoira mazkur misralarda o‘z halqining ayni damdagи taqdirini ko‘rgan bo‘lsa, ajab emas. Balki uni tarjimaga undagan kuch ham aslida shudir. Balki dilidagilarni to‘liq yozish imkonи yo‘qligi uni tarjimalar orqali ijodiy bo‘shanishga majbur qilgandir.

Yanka Kupala ijodidagi o‘ynoqilik, xalqona ohang Zulfiyani uning bitganlarini tarjima qilishga undagandir:

Belorusda shoir ham yo‘q-ku, axir,
Hech bo‘lmasa bo‘lsin Yanka Kupala.

To‘lepbergen Qayipbergenov ijodini kuzatar ekan, shoira uning aksar qahramonlari qoraqalpoq ayolları bo‘lganiga e’tibor qaratadi. Va ular orqali o‘lkaning erlariga bahosini beradi: “Ayolları qahramon va shiddatlı bo‘lgan o‘lkaning yigitlariga so‘z topib bermoq va aytganini ma’qul etmoq oson emas”.

1985-yil nashr qilingan “*Tanlangan asarlar*”ining “*Mushoira*” deb atalgan ikkinchi tomiga uning sakkiz dostoni kiritilgan. Bulardan “*Zaynab va Omon*” Hamid Olimjonning shu nomli dostoni asosida yozigan libretto bo‘lsa, umri poyonida yozilgan “*Xotiram siniglari*” asari ijodkorning eng oxirgi dostoni hisoblanadi.

Oldin aytilganidek, “*Uni Farhod der edilar*” dostoni janchi san’atkor Qobil qori xotirasiga bag‘ishlangan. Bu dostonning ifoda uslubidan shoiraning Hamid Olimjon ijodidan oziqlangani yaqqol namoyon bo‘ladi. Hamid Olimjonga xos takrorlar, so‘zni ta’kidlash orqali unga qo‘shimcha ma’no yuklash, shubhasiz, ijodiy ta’sir natijasidir:

Takror etar tog‘lardagi qor,
Takror etar kelganda bahor.
Shunda yashar asrlar bo‘yi,
Halok bo‘lgan san’atkor kuyi.

Dostonga hayotiy voqelik asos bo‘lgan. Akademik Naim Karimov dostonning yaratilish tarixiga to‘xtalib, shunday yozadi: “*Uning yoqimli ovozi bilan yozilgan “So ‘lim” qo‘shig‘i minglab plastinkalar orqali qariyb har bir o‘zbek xonadoniga kirib, ular qalbilan bir umrga joy olgan edi. 30-yillar oxirida sahnalashtirilgan “Farhod va Shirin” operasida bosh partiyan katta mahorat bilan ijro etib, Zulfiyaning mehr-etiborini qozongan edi u*”⁵. Qobil qori Ukarina frontida qattiq yaralanadi. Shunga qaramay, qaddini tik tutib, “Farhod va Shirin”dagi mashhur ariyani aytib yiqligan ekan. Qobil qorining so‘nggi lahzalardagi vatanparvarligi jangchilarga qatta ruhiy kuch beradi. Qobil qori haqidagi ushbu ma’lumot Zulfiyaga ilhom beradi. Doston yoziladi. Doston fojiali yakun topsa ham, nekbin ruh bilan yozilganligi urush davri adabiyotiga xos ruhiyatni yorqin aks ettirgandir.

“*Mening hamma she’rlarim yurakdan keladi*”,— deb aytadi shoira bir o‘rinda. “*Mushoira*” she’ri shoiraning bu fikriga dalil bo‘la oladi. 1956-yilda Dehlida Osiyo mamlakatlari yozuvchilarining birinchi konferensiysi bo‘lib o‘tadi. Konferensiyyada Osiyodagi 17 mamlakat yozuvchilari ishtirok etadilar. Ana shu yerda katta adabiy musobaqa – mushoira o‘tkaziladi. Shu yerda qiziq hol yuz beradi. Fayz Ahmad Fayzning she’rini yig‘ilganlar o‘n marta takroran o‘qitishadi va majlis ahli bu she’r ni yod olishadi. Hindlarning o‘ziga xos mushoirasi shoiraga qattiq ta’sir qiladi. Oradan ikki yil o‘tgach, Toshkentda Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilari

⁵ Karimov N. Zulfiya. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 54-b.

konferensiyastiga tayyorgarlik ko‘rilayotgan paytda Zulfiya “*Mushoira*” she’riga nuqta qo‘yadi va u “Qizil O‘zbekiston” gazetasida chop etiladi. Mazkur she’r samimiy e‘tirof, nozik kuzatishlardangina iborat bo‘lmay, ayni damda shoiraning mushoiraga muhabbatini ham sezdirib turadi:

Go‘zal tuproq uzra quyildi oqshom,
Kunduz olar dam,
Jo‘shqin mushoira etadi davom,
Do‘stim, kel sen ham!

“Mushoira” shoira samimiyatidan tug‘ilgan lirik dostonadir. Odatda, mushoiralar oqshomda – odamzot kunduzgi hayotdan tin olgan paytlarda uyuşhtirtilgan. Sharqqa xos bu an’ana “Mushoira”ning debochasida ta’kidlanadi. Adabiy mushoira do‘stlikka payvand bo‘lishi, do‘stlik san’atkor mahorati, san’at qoidasi – qofiya, misra, so‘z bahsida tug‘ilishini o‘zining estetik qarashlari asosida ko‘rsatib bergen.

Qay dil chamani boy, jozib nafasi,
Kimning fikri o‘tkir, teran, bokira?
Bu gurung – shoirlar musobaqasi –
Sharq she’riy chamani, bu mushoira!

Shoira dostonning bir necha o‘rinda: “*Jo‘shqin mushoira etadi davom, Do‘stlar bo‘lib jam*”, - deya mushoiraning davomiyligiga e‘tibor qaratib boradi. She’r yurakdan silqib keladi. Shuning uchun mushoirada muhtasham zallarga hojat yo‘q. Yuraklar jo‘r, ovozlar hamohang bo‘lgan yer – she’r bog‘i, she’r makonidir. “*Lekin hokim edi davrada ilhom Va jasur qalam*”. Shoira “*O‘zbek supasiday sahnada*” “*Nil quadrati*”, “*Gang zamzamasi*”day dil she’riyati namoyon bo‘layotganini ifoda etadi. Bu “*haqiqat va nurga intilgan yurak*”lar mushoirasi edi. Mushoira sharqona odatga binoan o‘sha yurtning urf-odatlariga chuqur ehtirom samarasini o‘laroq amalga oshgani ham shoira nazaridan chetda emas. Chordana qurib o‘tirilgan gilam atrofidagi har bir poyabzal turli millatlar qiyofasiga chizgi beradi. Zero, millatning asl qiyofasi uning har bir narsasida aks etadi.

Hindistoning mohir mirishkor kosib san’ati, Xitoyning bejirim, Bag‘dodning puxta oyoq kiyimlari, “*Mo‘g‘ulcha etiklar Panjob kafshiga Ertak so‘zlaganday egilib*” turishigacha shoiraning sinchkov nigohidan chetda qolmaydi. Shu orada shoira o‘z oyoq kiyimiga sekin nazar tashlab qo‘yishni ham unutmaydi: “*Yomon emas, Ahmad, mohir, kamtarin Vatandosh, ishingga olqish o‘qidim*”. Shu tariqa “*Qo‘sinq yuraklardan*

daryoday" oqayotgan pallaga zangori oqshomning go'zal tarjimonlik qilishi "Mushoira"ning husniga husn qo'shadi.

"Mushoira" she'ri Hind diyoridagi ilk mushoiradan so'ng oradan birmuncha vaqt o'tib o'zbek diyorida navbatdagi yig'in oldidan yozildi. Shoira mushoira ko'ngillar bahsi doimiy davom etishiga tilak bildiradi:

Davramiz mehrga to'liq bir olam,
Do'stlar bari jam,
Buyuk mushoira etadi davom,
Kelingiz siz ham!

Ko'pchilik shoir va yozuvchilar ijodida bag'ishlovlар, xotira-esselar uchrab turadi. Ammo bir ijodkor boshqa ijodkorni yonidan kuzatib, uning ruhiy holattlarini qalamga tushirish hodisasi kamdan kam uchraydi. Zulfiyaning "*Quyoshli qalam*" dostoni Oybekka bag'ishlangan ana shunday kamyob adabiy hodisalardan biridir. N. Karimovning ma'lumot berishicha, Oybek Buxoro amirligi tarixini yozishni reja qiladi. Oybek Zarifa Saidnosirova hamda Zulfiya bilan birgalikda mana shu niyatda safarga otlanadi. Olis yo'l davomida shoir haqidagi doston shoiraning ongida pishib yetiladi. Ikki-uch kunlik qisqa safar shoirada katta bir dostonning yaratilishiga asos beradi.

Doston yo'l safari, yo'l ta'rifi bilan boshlangan. Ammo u o'zining birlamchi ma'nosidan kengayib, falsafiy ma'no kasb etadi. Shoir poetik olamini akslantiruvchi ko'zguga aylanadi. Unda shoir umri sarhisob qilinadi. Oybekning: "*Yashash kerak daryoday uyg'oq*" – degan xitobi doston mazmuniga singdiriladi.

"*Quyoshli qalam*" faqat Oybekkagina emas, uning vafodor ayoli Zarifaxonimga ham qo'yilgan poetik haykaldir. Zulfiya dostonning ikki-uch o'rnida bu ayolga ishora qilib o'tadi. Mana shu o'rnlarda xotinning erga mehri, muhabbatni, ardog'i va alqovi bilinib turadi.

– Oybek ishlayapti, deydi baxtiyor.
Xotini adibga qiladi imo.
Taqdir adibiga hamdam etgan yor
Qalamday vafodor, ilhomday zebo.

Zulfiya Oybekning baxti umrining Zarifaday ayol bilan tutashganida, deb bildi. "*Vijdoniday toza, hayotday dono*" ayol Oybekning sertashvish umrida munis hamdamni bo'ldi. Zulfiya Zarifaxonimga "*eriday ulmatkash, eriday tanti*" ekanligini yashirib o'tirmadi. Zarifaxonimga berilgan baho Oybekka berilgan baho edi.

Shoiraning qisqalikka intilish, fikrni ixcham siqiq obrazli ifodalash prinsiplari uning dostonchilik mahoratida ham yaqqol ko‘rinadi. “*Uni Farhod der edilar*”, “*Quyoshli qalam*”, “*Xotiram siniqlarii*” lirik dostonlari ixcham yozilgan. Ko‘proq lirik tuyg‘ularga hamohang katta she‘r ni yodga soladi.

“*Zulfiya she’riyatı intellektual va psixologik she’riyat*, – deb yozadi S.Mamajonov. – *U tahliliy, falsafiy, o’ychan, ayni chog’da manzarali. Shoira hissiyot oqimini, kechinma manzarasini, o’tkir dramatik holatni ham, dramatizmning cho’qqisi – fojeiy kolliziyalarni ham chizadi. Unda vaqt va makon qamrovi keng, yaxlit. Ijodida xotira, taqdirdosh, yuragiga yaqin kishilar, kelajak ohanglarining bargarorligi shundan*”⁶.

“Xotiram siniqlari” Zulfiya poetik ijodining alohida bosqichi hisoblanadi. Bu doston ijodning hamisha insonni mahliyo etadigan tomonlari bo‘laverishining isbotidir. Har bir asarning yaratilish tarixi mavjud. “Xotiram siniqlari” dostoni Zulfiyaning 80 yillik to‘yi arafasida dunyoga keldi. Bu haqda shoir Qutlibeka Rahimboyeva quydagi larni yozadi:

“Men opaning ijod jarayonlariga, ayniqla, ijodlarining gultoji bo‘lgan “Xotiram siniqlari” dostonining yozilish tarixiga guvoh bo‘lganimdan nihoyatda faxrlanib yuraman.

Ustoz tavalludining 80 yillik tantanalariga tayyorgarlik boshlangan kunlar edi. Gazeta, jurnallarga materiallar so‘rashar, opa har kun xazinasini varaqlar edi. Galdag‘ shunlay jarayonlarning birida:

– Bir narsam bor-u lekin sochilib yotibdi, yig‘a olmayapman. Har gal qo‘limga olganda yuragim tugatib tashlaydiganga o‘xshaydi-yu, boshim charchab qoladi, – dedilar.

– Qani o‘sha yozganlarinigiz, – dedim.

Opa oddiy ish daftariga eski yozuvda (ustoz odatda qoralamalarini shu yozuvda yozib, so‘ng kirilchaga ko‘chirardilar. “Menga shunisi qulay” derdilar) yozilgan qoralamalarini o‘qiy boshladilar. Oxirigacha “qilt” etmay o‘tirib eshitdim.

– Axir, bu bir narsa emas-ku, Zulfiya opa, bu zo‘r doston bo‘ladi, – dedim. Faqat bandlarini joy-joyiga qo‘yib chiqish kerak.

Shoir yozganlarining bahosini yaxshi biladi. Lekin kimdir fikrdosh bo‘lsa, baribir boshqacha kayfiyatda bo‘ladi. Hatto o‘sha kimdir menday havaskor shogird bo‘lsa-da...

⁶ Karimov N. va b. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, 354-b.

– Sen shunday o‘ylayapsanmi? – dedilar. Ovozları boshqacha jaranglab, ko‘zları boshqacha chaqnadi.

– Albatta! Siz aytib turing, men kirilchada yozaman, – dedim.

Ustoz divanga bemalol o‘tirib olib qoralamalarini o‘qiy boshladilar. Ko‘chirib bo‘lgach, men baland ovozda hayajon bilan o‘qib berdim. Opa:

– Eshitganda aniq bilinar ekan, man bu bandni oldinga olish kerak, bunisini orqaga, – deya ba’zi bandlarning o‘rnini almashtirdilar.

– Men erta sahar turib yana bir qarab chiqaman, keyin yana bir o‘qiymiz, – dedilar...

Ertalab ishga ketayotib, Chimkent ko‘chasidagi uylariga kirdim. Ustoz horg‘in, lekin juda baxtiyor edilar. Kecha o‘qigan dostoniga bir necha bandlar qo‘shilgan edi. Jumladan, birinchi o‘qiganimda mana bu bandlar yo‘q edi. Bu betakror satrlar bugungi saharning – istiqlol saharining bergen imkonи tufayli dunyoga kelgan edi.

Hurriyat keldingmi – nahotki kelding,
Pinhona sog‘indim, pinhona kuydim.
Yomg‘irga bag‘rini tutgan sahrodek –
Sening nasimingga qalbimni tutdim.
... Yodim siniqlari, qalq, ovoz beray
Qalqdi, yuragim, chida, ber bardosh,
Qaragin titroqda – hammasi jonli,
Qara hammasining yuzi qontalash...

Men bor ovozim bilan hayajondan titrab, ko‘zimda yosh bilan dostonni o‘qir ekanman, ustozning yillar davomida xotiralariga cho‘kib yotgan, zamon to‘lqinlarida qalqib chiqqan armonlarining suvratini ko‘rardim.

...Aka, jonim akam – jondoshim akam
Oltmis yil izimga qaytib yig‘layin.
Bo‘g‘zimda tosh bo‘igan yo‘qovlarimni,
“Oh”larim eritar – aytib yig‘layin.

Kubi satrlarni takror va takror o‘qirdim. Ancha payt doston ta’sirida o‘tirdim.

– Bu dostonni nima deb ataymiz endi? – dedilar va o‘zları:

– Xotiram parchalari... – dedilar. Indamay qarab turgandim

– Yo‘q Xotiram siniqlari... dedilar.

Sarlavhadagi “siniq” so‘zida jarohat ham bor, so‘z juda joyiga tushgan edi.

“Xotiram siniqlari” ko‘p o‘tmay matbuotda chop etildi. Doston samimiyati, insoniy dardning chin in’ikosi sifatida adabiy jamoatchilik, she’riyat muxlislari tomonidan juda iliq qarshi olindi. Va bu asar istiqlol tufayli hayrati, jasorati yana bir bosh balandlagan Zulfiyaxonimning go‘zal imkoniyatlarini namoyon etdi. Ustozning tug‘ilgan kunlari poytaxtimizning “Turkiston” saroyida nishonlandi. Opa tantana yakunida minnatdorlik so‘zlarini she’rga uladilar. She’rdagi:

Sakson yil lovullab so‘nmagan o‘tman...
...Baxtim shul o‘zbekning Zulfiyasiman...

satrlari u kishi hayotligida ham, keyin ham qancha chiroyli davralarga bosh so‘z bo‘ldi”. (Sakson yil lovullab so‘nmagan o‘t. Qutlibeka Rahimboyeva. Yoshlik, 2014, 11-son 3-4-betlar)

I-chizma

Shoira she’rlarida bahor tasviri



2-chizma

Hamisha ne’matga homila tuproq,
To‘lishgan tanini solmish oftobga.
Dehqon qulog‘iga tanish qo‘ng‘iroq,
Jarangdor kurtaklar yetibdi tobga.
Demak, bahor keldi.

Olcha guli bargiday
 O'ynab uchib yog'ar qor.
 Ajab gulga qarayman.
 Ko'zimda yashnar bahor.

Daraxtlarning shohida
 Qor yashnaydi xuddi gul
 Qiya tepaliklarning
 Yaxida valtirar ul.

1-topshiriq.

Shoira ijodida bahor tasviri uchraydigan she'rlari haqida fikr bildiring.

2-topshiriq.

Zulfiya she'rlarining asosiy xususiyatlari nimada deb o'ylaysiz?

3-topshiriq.

Siz Zulfiyaning qaysi she'rlarini yod olgansiz? Nima uchun?

4-topshiriq.

Zulfiya she'riyatini mavzularga ajratib ko'ring. Qaysi mavzu shoira ijodida yetakchilik qilayotganini aytинг va sababini tushuntiring.

5-topshiriq. Juda ko'p o'zbek qizlariga Zulfiya ismini qo'yish urf bo'ldi. Bunga bir tomondan shoira Zulfiya sabab bo'lganini e'tirof etishindi. Xususan, Zulfiya Mo'minovaga shu maqsadda ism qo'yishganini uning o'zi aytadi. Aytинг-chi, buning sababini nima bilan izohlash mumkin?

Shoira she'rlarida ayrılıq ohanglari

Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor,
 Ketma, aslo ketma ko'zimdan yiroq.
 Garchi tushimda ham seni bir ko'rish
 Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq.

5-chizma

U bor yerda qayg‘u va hasrat
 Hayotingga begona ekan.
 Qani, aying, farzanddan qimmat
 Bu dunyoda nima bor ekan.

(“Farzand”)

6-chizma

Ajal degan beshafqatga
 Koshki otsam ishqimni.
 To‘ldirsam ham ko‘kni dodga,
 Saqlasam men baxtimni.
 Koshki edi, so‘ng qo‘lingda
 Erkalanib bersam jon.
 So‘nggi nigoh senda qolsa,
 Men ko‘z yumsam bearmon.

6-topshiriq. Shoira she’rlariga ayriliq ohaglari kirib kelishining sababini siz aynan nimada ko‘rasiz? Fikringizni isbotlang.

7-topshiriq. “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh” kabi she’rlarni ifodali o‘qing.

8- topshiriq. Urush va hijron mavzusi shoira ijodida uyg‘unlashgan o‘rirlarni aniqlang.

7-chizma

Zulfiya ijodida urush mavzusi

Urush! Noming o‘chsin jahonda,
 Hamon bitmas sen solgan alam.
 Sen tufayli ko‘p xonadonda
 Ota nomli buyuk shodlik kam.

“O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”

9-topshiriq. “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!” she’rini to‘iq o‘qing. She’rning yozilish tarixini N. Karimovning “Zulfiya” deb nomlangan kitobidan o‘rganing.

10- topshiriq. Shoiraning urush mavzusiga bag‘ishlangan qanday she’rlarini bilasiz. Zulfiyaning uch jilddan iborat “Saylanma”sini www.ziyouz.com kutubxonasi saytidan toping. Saylanma tarkibidagi “Ujjron kunlarida” turkum she’rlariga baho bering.

8-chizma

Zulfiyaning adabiy-estetik qarashlari

“Bilasizmi, she’rdagi tuyg‘u bir lahzalik, oniy bo‘lsa ham, u uzoq yillar bashorati bo‘lishi zarur. Katta, yorqin gaplarni qog‘ozga tushirmoq darkor. She’r zinhor bir kishi uchun yozilmaydi. U faqat o‘z “hasratnomangiz” bo‘lib qolsa, endi bu poeziya emas-da!

No‘noqlik bu... Kimlarningdir iztirobi, o‘ylari, o‘rtanishini xayolingizga payvand qilib yubormasangiz, u ko‘philikning dardiga aylanolmaydi”.

9-chizma

“She’rim ravon bo‘lsa, qulqoqa yaxshi eshitilsa, uni o‘qigan odam mumkin qadar tez tushunsa, she’rim aniqlik va ravonlik kasb etsa deysan. Ammo ikkinchi tomondan, she’riyat shunchaki so‘zlardan iborat to‘rt amal emasligini, she’riy algebra – obrazlilik uning negizini tashkil etishini yillar o‘tgani sayin tobora chuqurroq anglab boraverasan”.

11-topshiriq.

Ijodkorming adabiy-estetik qarashi deganda nimani tushunasiz? Umuman, adabiy-estetik tafakkur sizning tushunchangizda nimani anglatadi?

12-topshiriq.

Zulfiya ijodini qaysi ijodkor asarlari bilan solishtirib o‘rganish mumkin deb o‘ylaysiz? Ayol ijodkorlar misolida fikringizni isbotlang.

13-topshiriq.

Shoira “Saylanma” asarlarining “Kamalak” deb nomlangan 3-jildini topping. Unda shoiraning publitsistik maqolalaridan biri bilan tanishib, tahlil qiling.

14-topshiriq.

Shoira nazarida she’riyat va she’rga munosabat qaysi mezonlar bilan o‘lchanishini belgilang. Fikringizni shoira fikrlari bilan izohlang.

15-topshiriq.

Shoiraning ustozlari va zamondoshlari haqida fikrlarini topping. Uning bahosi bilan o‘zingizni shu ijodkorlar haqidagi fikrlaringizni tizimlashtiring.

16-topshiriq.

Shoira ijodida ayol mavzusi qaysi asarlarida bo‘rtib ko‘ringan? Sizning nazaringizda ayollik baxti nima bilan o‘lchanadi. Sabr va sadoqat timsoli baxt mezoni bo‘la oladimi?

10-chizma

“Oybek chuqur xayolga botgan, ohista harakat qilishi o‘ziga xo‘p yarashgan, doim jonini jabborga berib ishlaydigan odam bo‘lsa, G‘afur G‘ulom sharutta-shartta she’r to‘qib yuborishdek deyarli beandoza iste’dodga ega bo‘lganligidan, uning hamma narsani o‘z bag‘riga singdirishga qodir to‘lib-toshgan, past-baland misralari ham sirdan qaraganda huddi o‘ziga o‘xshar edi: G‘afur G‘ulom ongida charx urgan fikrlarni birvarakayiga aytib olishga oshiqqani uchun ishga birdan yopishib, uni bir o‘tirishdayoq tugatib qutulishga odatlangandi. Shuning uchun ham she’rlarini birovga ayttirib turib yozdirishi ham mumkin edi. Men boshqa bunday shoirni bilmayman”.

17- topshiriq.

Gulgina Zokirovaga bag‘ishlangan “*Kuylama hijronni*” she’ridagi “*Kuylama hijronni, men kuylab bo‘ldim. Nahot men yetmagan pardasi qolmish? Achchiq, uzun yo‘lin men bosib o‘tdim. Senga nega darkor, qayta yo‘l olish*” – misralar ma’nosini izohlang.

11-chizma

...Oripov yosh bo‘lishiga qaramay, voqelikka keng, dadil nazar bilan qaraydi va hamma narsa haqida sodda qilib, o‘z tili bilan so‘zlab berishdek noyob qobiliyatga ega. Uning tili xalq nutqining durdonalariga boy bo‘lganligidan aniq, goho sal betakallufroq va juda ham ifodali.

Meni quvontirgan narsa shuki, Abdullaning deyarli har bir she’ridan xoh uzun, xoh qisqa bo‘lsin – o‘zing istagan ezgu misrani, ruhingga ta’sir qiluvchi yangi gapini topasan. Afsuski, buni hamma shoirdan ham topib bo‘lavermaydi.

*(“Hayot va so‘z”.
Aleksandr Naumov bilan suhbat).*

12-chizma

Agar birov Yaxshilik nima? – deb so‘rasa, men darhol Mustay Karim, – deb javob beraman. Aql-idrok nima desalar ham men u kishining ismini takrorlardim. Ilhom, nazokat, qat’iylik – barcha yaxshi fazilatlar sharhini so‘rayverishsin, men Mustay Karimni aytaverardim.

*“Qalblarga toshqin bo‘lib
kirayotgan ovoz”*

Zulfiyaning she'riy to'plamlari

"Hayot varaqlari"

"Hijron kunlarida"

"Hulkar"

"Men tongni kuylayman"

"Yuragimga yaqin kishilar"

"Dugonalar bilan suhbat"

"Gullarim"

"She'rlar"

"O'ylar"

"Visol"

"Yillar, yillar"

"Tong bilan shom aro"

"Daftarlarni varaqlaganda"

18-topshiriq.

Zulfiyaning qaysi kitobi kutubxonangizdan o'rin olgan? Zulfiyaning badiiy mahorati haqida fikr yuriting.

19-topshiriq. Shoira ijodini yoritishda "Blis" metodidan foydalaning. Quyidagi savollarga tezkor javob bering.

1. Zulfiya ijodi qaysi sharq mumtoz ijodkorlarinikiga o'xshaydi?
2. Zulfiya ijodining o'ziga xosligi nimada?
3. Zulfiyaning shogirdlaridan kimlarni bilasiz?
4. Zulfiyaning murabbiylik va ustozlik fazilati nimalarda ko'rindi deb o'ylaysiz?
5. Zulfiyaning "mening asarlarim – mening tarjimayi holim" degan fikrlarini qanday izohlaysiz?
6. Zulfiyaning qaysi shaxsiy fazilatlari sizni o'ziga maftun etgan?
7. Zulfiyaxonim qizlari haqiqatan Zulfiyaga izdosh bo'lyaptimi? Nima deb o'ylaysiz?
8. Sizning nazaringizda Zulfiya bilan Hamid Olimjon ijodlaridagi mushtaraklik nimalarda ko'rindi?
9. Zulfiyashunos olimlardan kimlarni bilasiz?

10. Zulfiyaning she'r laridan birini yoddan o'qing.

20-topshiriq.

"Zulfiyaning badiiy olami" mavzusida ijodiy matn tuzing. Unda shaxsiy qarashlaringiz aks etgan bo'lsin.

21-topshiriq.

"Zulfiya publitsistikasi" mavzusida suhbat uyushtiring. Unda shoiraning ijodkorlarga bergan baholari va munosabatlaridan foydalaning.

14-chizma

Zulfiya dostonlari

"Uni Farhod der edilar"

"Ikki o'rtoq"

"Qishloq vrachi"

"Mushoira"

"Vodil yulduzları"

"So'roqlaydi shoirni she'rim"

"Quyoshli qalam"

"Zaynab va Omon" (libretto)

"Xotiram siniqlari"

15-chizma

"Uni Farhod der edilar" dostonidan

Takror etar tog'lardagi qor,
Takror etar kelganda bahor.
Shunda yashar asrlar bo'yи,
Halok bo'lgan san'atkori kuyi.

16-chizma

"Mushoira" dan

Go'zal tuproq uzra quyildi oqshom,
Kunduz olar dam,
Jo'shqin mushoira etadi davom,
Do'stim, kel sen ham!

Zulfiya tarjimalari

A.S.Pushkindan

N.A.Nekrasovdan

Mustay Karimdan

Demyan Bedniydan

Nozim Hikmatdan

Mirzo Tursunzodadan

Sulaymon Rustamdan

Qaysin Quliyevdan

Esimdadir ajib dam hali:
 Ko‘z oldimda bo‘lding namoyon.
 Pok go‘zallik dahosi kabi
 Bir lahzalik xayol, tushsimon.

A.S.Pushkin. “...ga,,

Qullar bo‘lib yashashdan ham qullik yomon,
 Yerimizda qullar bitar biror zamон.
 Qullar bitar ruhimizga podsho bo‘lib,
 Dilimizga taxtin qurib qolar hamon...
 O, ruhlarni kishanlagan qullik yomon.

Mustay Karim.
 “Oy utilgan tunda....,,

Ayol ijodkorlardan qilingan tarjimalari

Gabriela Mistraldan
Lesya Ukrainkadan
Solomeya Nerisdan
Marina Svetayevadan
Anna Axmatovadan
Yelizaveta Bagramyandan
Desanka Maksimovichdan
Margarita Aligerdan
Lyudmila Tatyanichevadan

22-topshiriq.

Zulfiyaning ayol mavzusi va ayol ijodkorlar asarlariga ko‘proq murojaat qilishining sababini nimada deb o‘ylaysiz?

23-topshiriq.

Zulfiya tarjimasida kimning asarini o‘qigansiz?

2. Ayriliq va sadoqatning jo‘sinqin kuychisi. Mevaning sifati uni yetishtirgan og‘ochga qanchalik bog‘liq bo‘lsa, ijodkorning bitganlari uning shaxsiyatiga shunchalik bog‘liqdir. Shu ma’noda, Zulfiya she’riyati, ayniqsa, ajralib turadi. Uning nozik chizgilar, go‘zal tashbihlar bilan bir vaqtida “inson ruhiyatini g‘ajib tashlay oladigan” ayrılıqdan tug‘ilgan tiyiqsiz iztirob, taqdirning notantiligiga po‘rtanavor isyon aks etgan lirkasi shoira shaxsiyatining inja ko‘rinishlaridir deyish mumkin.

Zulfiya ijodida hijron, sadoqat to‘g‘risidagi she’rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu – tabiiy hol. Negaki, u ikki kishi uchun yashalgan uzoq umri davomida ayrılıqning ellik ikki yillik yo‘lini sharaf bilan bosib o‘tib, sadoqat timsoliga aylandi. Haqli ravishda ta‘kidlanganidek: “...ayriliq va hijron azobi barchaning ham boshida bor. Ammo g‘am-anduh va hasratlarni matonat bilan yengib, tog‘dek bardoshi bilan vafo va sadoqat ramziga aylangan Zulfiya opa singari ayollar har qanday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdir”⁷. Shoiraning ayriliq hasratlari aks etgan she’rlarida badbinlik, umidsizlik, noshukurlik, so‘ngsiz qayg‘uga asirlik

⁷ Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, 2008. 167- b.

tuyg‘ulari yo‘q. Bu she’rlarda suyguvchi, ayriliqdan qattiq kuyguvchi, ammo hayotdagi yorug‘liklarni ko‘rguvchi va ko‘rganiga shukronalik qilguvchi shokira ayol sezimlari aks etgan.

Zulfiyaning “*Sen qaydasan, yuragim*” she’ri Hamid Olimjon vafotidan bir yil o‘tgach yozilgan bo‘lib, unda hijron o‘tida qovrilayotgan alamdiyda ayolning tuyg‘ulari yorqin aks ettirilgan. O‘qirmanni she’rning ohangi o‘ziga jalb etadi. Mazmuni g‘amdan iborat she’rning ohangi ham g‘amgin. Bu ohangda adoqsiz g‘am og‘ushidagi shoiraning shikasta ovozi, yo‘qsil ruhi aks etadi. Hazin ohang o‘qirman tuyg‘ulari ko‘zini ochib, she’r ruhi tuyilishini osonlashtiradi.

Zulfiya uchun Hamid Olimjon ham sevimli yor, ham maslakdosh do‘st edi. Endi u – yo‘q. Yig‘lamaslik, g‘amga cho‘kmaslik imkonsiz. Bunday qilmaslikka iroda ojizlik qilmoqda. Atrofda odam ko‘p-u, lirik qahramon “yakka-yolg‘iz”. Chunki uning suygani olamda birligina edi, xolos. Uning o‘rnini o‘zga bosishi va qahramonni yolg‘izlikdan xalos eta olishi mumkin emas. Uning xayoli o‘zi bilmagani holda yo‘qotganini izlash bilan ovora. Yorini yo‘qotganidan dunyoning rangsizlanib qolganini shoira: “*Birdan qalbim keksarib*”, – deya ifodalaydi. Bor-yo‘g‘i o‘ttiz yoshdagagi shoiraning dard-u hasrati she’r da bandma-band oshib boraveradi: “*Qayga ketding, yuragim, Bitdi bardosh va toqat. Suhbatingdir tilagim, Tilda hasratim qat-qat*”. Ayrilik zo‘ridan tili va dilida hasratlar qat-qat bo‘lgan mushtipar ayolning ruhiyatini his etish uchun kishi ushbu misralarning ma’nosini tushunishi darkor.

Zulfiya yoridan ayrılgan kezlarda odam o‘z g‘amini aytish imkonidan ham mahrum edi. Negaki, hukmron mafkura kengash (sovet) tuzumida yashayotgan odamlarning hammasidan yoppasiga baxtiyorlikni talab qilardi. Qayg‘u haqida gapirayotgan odam mavjud tuzumning dushmani sanalardi. Zulfiyaga, yuragi alamlardan pora bo‘lgan yorga, hijrondan o‘rtanayotgan beva aylonga, norasida farzandlarining so‘roqlariga javob topa olmayotgan bag‘ri qon yosh onaga, baxtsizlikdan o‘rtanayotgan shoiraga g‘am to‘g‘risida, hijron haqida keragidan ortiq yozmoqda degan ayb qo‘yiladi! Bu da‘voni begonalar emas, uni yaxshi biladiganlar, yonida yurganlar qilishadi. Ushbu holat she’r da, garchi, “*Yig‘laysan deb do‘stilarim ta‘na qilar. Netay men?*” tarzida muloyim bir hazinlik bilan ifodalangan esa-da, bu misralar zamirida adoqsiz va unutilmas alam sirqirab yotibdi.

Shoira – ahidda ustuvor. U tuyg‘ulariga xiyonat qilmaydi. Shu sabab kechinmalari sovimaydi. Alami, hijroni har zumda yangilanadi, kuchayaveradi. Ro‘zg‘ori, farzandlari, kitoblari, do‘silari yo‘qotgan

kishisini qayta-qayta esga solavergani bois quyidagi o‘tli satrlar qog‘ozga inadi: “*Sovush bermaydi menga, Yoqib ketganing olov*”. Muhabbatning olovi mangu yongulik qudratga ega. Aql yorning qaytib kelmasligiga iqror bo‘lsa ham, ruh bunga ko‘nikmaydi, u berahmlik bilan qaytmas bo‘lib ketgan yorga talpinaveradi. Sadoqatli shaxsnинг azoblari tinimsiz davom etaveradi. Ushbu dramatik holat aslida shoiraning shaxsigagina tegishli bo‘lsa-da, u kechirgan tuyg‘ular bosqalarga ham begona emas.

Shoiraning “*Ne baloga etding muftalo*” she’rida Hamid Olimjon nomi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tilga olinmaydi. Ammo shoiraning hayot yo‘li bilan birmuncha tanish bo‘lgan har bir o‘qirman she’ming u haqda ckanligini tuyushi tabiiy. She’r dagi alamli murojaat, javobsiz savol kimga atalganini aniqlashga urinish shunga olib keladi. She’r 1945-yilda yozilgan. Fojia ro‘y bergeniga yil o‘tgan, lekin uning alamlari eskirgan emas. “*O’tdi oyolar g‘am bilan oqib, Dil topmadi zarra tasallo*” misralarida shoiraning insoniy dardi ko‘lami tasvir etiladi. Oylarning g‘am bilan oqishi tasviri tuyg‘uning miqyosi va shiddatini o‘qirman tasavvurida gavdalantirishga xizmat qiladi. Ayriliq tufayli paydo bo‘lgan g‘am daryoday oqmoqda. Hijron oyłari ana shu g‘am o‘zanida oqib bormoqda. Vaqt o‘tayotir. U har qanday dardni unuttirishi kerak. Lekin vaqtning o‘tishidan shoira dili zarra qadar tasalli topa olmayapti. Haqiqiy va ulkan yo‘qotish oldida vaqt ham ojiz.

Ikkinci banddagи “*Ko‘z ochgani qo‘ymaydi alam, Boshim qo‘ysam kuydirar bolish*” misralarida teran poetik ma’no o‘ta ta’sirli shaklda ifoda etilgan. Alamning zo‘ridan ko‘zini ocholmaydigan holga tushgan, yuragidagi g‘am o‘tining kuchi beva ayolning aslida muzday bo‘ladigan bolishini kuydirar darajaga yetgani ifodasi shoira tuyg‘ularini o‘qirmanga ham yuqtiradi. Ko‘ngilda yonayotgan ayriliq alangasi sabab yostiq boshni kuydirishi ifodasining shu qadar shoirona berilishi o‘qirmanni befarq qoldirmaydi. She’rda iztirobli tuyg‘ular g‘oyat izchil tasvirlangan: vujud va yurak qiyognog‘i ifodasidan keyin bu qiyonoqlarni bosish uchun kitob va qalamga qo‘l urilgani, ammo na kitob, na qalam qahramonni yupata olgani aks etadi. “*Misralarim ko‘tarar nolish*” satrida esa kuchli mantiq juda chiroyli ifodasini topadi: ayriliq iskanjasidagi odam g‘amni unutmoq uchun qo‘liga qalam olsada, qalam yana nolani, yana dardni, yana hijronni ifodalaydi! Chunki chinakam she’r ko‘ngil holatining manzarasidir. Shoira o‘z hissiyoti xurujining quyuq manzarasini bergach, so‘raydi: “*Nahot, shuncha ma‘sум, shuncha pok Sevishmoqda alam bor shuncha*”. Sirtdan qaraganda, bu so‘zlar oshiqqa qaratilganday ko‘rinsa-da, aslida taqdir, qismat so‘roqqa tutilmoqda. “*Shuncha*” so‘zining takror ishlatalishi

g‘amining naqadar kattaligini o‘zi ham tuzukroq bilmaydigan kishi holatini aks ettirgan.

Hushyor she’rxon yuqoridagi misralarda Hamid Olimjonning mashhur “Ofeliyaning o‘limi” she’ridagi “*Hali sevishmoqda shumidir ma’no? Faqat azob bordir qismatda, nahot?*” satrlarining nuqsi borligi va bu tabiiy ekanini anglaydi. She’rning so‘nggi bandi o‘qirmanni o‘ylashga undashi, unga tuyg‘ular rang-barangligini sezish imkonini berishi bilan ajralib turadi:

Erib ketmagandim sevgingdan,
Bo‘lmaslik-chun baxtingdan judo,
Birga qolish uchun sen bilan
Kuyamanu bo‘lmayman ado.

Shoira vujudidagi tuyg‘ular mavji uni baxtiyor damlar qatlanib yotgan xotiralar qirg‘og‘iga keltirib tashlaydi. U armon bilan eslaydi: tirikligingda sendan ayrilmaslik, baxtdan judo bo‘lmaslik uchun olovli muhabbatning taftida erib ketmagandim. Endi qabring poyida sen bilan birga qolish uchun shamday eriyman, kuyaman-u, ammo ado bo‘lmayman! Demak, avval, erish mumkinligida ayrilmaslik uchun atay erimagandim, endi senga qo‘shilish uchun atay kuyib ketmoqchiman-u eriy olmayotirman! Bir yuksak tuyg‘uning ikki qarama-qarshi ma’nolar tashiydigan baytlarda ifodalanishidagi poetik go‘zallik she’rning badiiy qiymatini oshiradi.

Zulfiyaning “*Sensiz*” she’ri 1970-yilda yozilgan. Mazkur she’rni shoira hayotidagi fojيانing bevosita aks-sadosi deb bo‘lmaydi. Chunki oradan chorak asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan, oddiy tasavvurlarga ko‘ra, har qanday g‘am-alam unutilishi uchun yetarli fursat kechgan. She’rning ohista boshlangan dastlabki misralari ham shuni tasdiqlaydiganday bo‘ladi: “*Mana bir umrni yashadim sensiz, Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib*”. O‘qirman ilk misralarning ma’nosini chaqib, ular zamiridagi go‘zallikni ko‘ra olsa, quyidagilarni kashf etgan bo‘lardi: shodliklar oshiq bilan qabrga kirgan, shu bois qaytmas, lirik qahramon buni juda chuqur his etadi. Ammo u umidvor inson, baribir qandaydir mo‘jiza yuz berib yorining qaytishini kutaveradi. Shu taxlit aldamchi umid bilan butun umr yashab qo‘yibdi! Shuning o‘zi bir insonga yetgulik fojia. Ammo she’rdagi fojaviy ohang misrama-misra yuksalib borishda davom etadi. Chunki lirik qahramonning yarador qalbini baxt ham, bahor ham, qish ham qiy Naydi. Negaki, birovning baxti o‘zining baxtsizligini esiga soladi, yorning sevgan fasli ko‘klam qaytib kelaveradi, bahorni seuvuchni

insonning o‘zi esa yo‘q. Qish – og‘ir kechadigan fasl, shu bois baribir bahorni – yo‘qotilgan sevgini esga tushiraveradi. Qayg‘uga ham befarq bo‘lomaydi, zotan, har qanday insonning har qanday qayg‘usi qahramon qayg‘usiga o‘xshash, hamohang!

U seviklisini unuta olmaydi, esdan chiqarishga urinsa ham, buning uddasidan chiqolmaydi. Va ayriliqdan hadsiz qiynalib ketganlarida xayolan yoridan so‘raydi: “*Tirik ekan nega tashlab ketmading?*” Bu misra suygan odamning ilojsizlikdan, vaqt va muhabbat qarshisidagi ojizlikdan bildirgan noroziligining avj ifodasi. Shundan keyingi misralarda yorning shoirani tashlab ketishiga sabab bo‘lishga arziydigan xayoliy go‘zalning sifatlari keltiriladi. Shoiraning tasviricha, suyganidan tiriklikda ayrilganda, keyingi hijron bu qadar og‘ir kechmagan bo‘lardi!

Lirik qahramonning tuyg‘ulari pokiza. U biladi: hijron azobli, tirik turib ayrilish har nedan qiyin, lekin sevgan kishisining hayoti uchun har qanday azobgada tayyor: “*Bilardim, qaydadir olasan nafas*”. Shoira tuyg‘ular tasviri maromini buzmaydi. Lirik qahramon sevgisi rad etilgan har qanday ayol singari: “*Bilaman, rashk meni etardi halok, Afzal ko‘rganiningni qarg‘ab o‘tardim*”, – degan so‘zlari bilan o‘zining asl tuyg‘ularini ochiq aytadi. Jonidan ortiq yaxshi ko‘rgan kishisining qaydadir, qandaydir boshqa birov bilan bo‘lishini his qilish qahramon uchun oson emas. Garchand, u bugunga kelib, qaytarilmas yo‘qotishlar qarshisida shunga ham rozi esada. Shu bois u nega tirikligingda tashlab keta qolmading, ayriliqni kechirish osonroq bo‘larmidi, deb iddao qiladi, yozg‘iradi.

Zulfiya she’rlarining aksariyatida kuchli obraz, porloq fikr ko‘pincha so‘nggi bandda beriladi. Lirik qahramon o‘z qismatining taxirligidan nolib kelar ekan, tuyg‘ular junbushi borgan sari yuksalib boraveradi. So‘nggi bandda, nihoyat, shoira tan oladi: “*Ma’yus taqdiringga yashab men sherik, Mushkul bo‘layotir shodlik yaratmoq*”. U yorining qismatisiz, uning ma’yus taqdiriga sherik bo‘lmasdan yashay olmaydi. Noravo hayot esa undan “shodlik yaratishni” talab etadi. Shu bois lirik qahramon suyganidan norozi bo‘ladi, shu sabab alam bilan unga murojaat etadi: “*Nega tirik ekan tashlab ketmading, Tashlab ketmading-sa boshlab ketmading?!*” Lirik qahramon holatining, tuyg‘ulari ko‘lamining yorqin ifodasi she’rning so‘nggi ikki misrasiga go‘zal joylangan. So‘nggi misrada “ekansan” so‘zning “sa” tarzida berilishi ham, -sa shakli tufayli jumla qurilishidagi o‘zgarishlar ham qahramon ruhiy holatini quyuqroq ifodalashga, tasvirning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Zulfiya faqat o‘z shaxsiy hayoti qobig‘ida qolishi mumkin emas edi. Shoira ayriliqdan o‘zga hayotiy yo‘nalishlarda ko‘plab sevgi she’rlari, dostonlar, poetik manzaralar yaratgan ijodkordir.

Zulfiyaning “*Oydinda*” she’rida ko‘klamning yomg‘irdan keyingi tunlaridan birida yulduzlar charaqlagan osmon, olamni oqlikka o‘ragan oy, xayol kabi to‘zg‘in bulutlar go‘zalligini ko‘rib hayajonga tushgan shaxsning kechinmalari, hayratlari jozibali aks ettirilgan. Bu asar shoira she’riyati yo‘nalishining sertarmoqligini ko‘rsatib, hassos qalbli ijodkorning ayriliq she’r lardan keskin farq qiladigan badiiy yuksak yaratiqlari ham borligini bildirishi jihatidan ahamiyatlidir. She’r da oyning ko‘kda “*jilib-jilmas*”ligi, anhorda esa “*qulun toy*”ligi-yu, “*gilosda shig‘il-shig‘il*” ekani aks etganligi, “*bulutning xayolday yengil*”ligi tasviri o‘qirman kayfiyatindida o‘zinikiga sherik qiladi.

Anhor tinimsiz to‘lqinlanib oqadi, shu bois unda aks etayotgan oy qulunday yugurik. Yomg‘ir yuvib ketgan gilos mevalarining har birida bittadan oy jilva qiladi, shu bois gilosda “*shig‘il-shig‘il*”. Hovuz oqmaydi, shu bois oy unga yaxlit oynaday bo‘lib yoyilgan, oyni yaxshiroq ko‘rmoq ilinjida egilgan shoira yana bir go‘zal Oyga, ya‘ni o‘ziga ro‘para keladi. U malika yanglig‘ ming-ming yulduzni sidirg‘asiga chayqab, yerga sudrab ketmoqda. Chunki tiniq osmonning hovuzdagagi aksi ko‘kdagidanda tiniq ko‘rinadi. Ortidan minglab yulduzlarni ergashtirib ketayotgan oyday malak o‘qirman ko‘z oldiga keladi. “*Sel unutgan ko‘lmaklar Misli oyning singani*” misralaridagi chiroyli o‘xshatishdan tashqari “sel unutgan ko‘lmak” obrazli ifodasi haqida o‘yga tolish, uning tagiga yetishga urinish she’rxon didini yuksaltiradi. Samimi tuyg‘ular ifodasi bo‘lmish she’rdan hayratga tusha oladigan, chinakam she’riy satrlar bag‘ridagi sehrni his qilishga qodir o‘qirman ma’naviy olamida ezgu sifatlar shakllanishi shubhasizdir.

Yorqin iste’dod, betakror shaxsiyat, kamyob taqdir egasi bo‘lgan shoira Zulfiyaning ta’sirchan she’riyati uzoq yillar millat yoshlariga sadoqat saboqlarini berishda davom etaveradi.

Zulfiyaning “*Sen qaydasan, yuragim*” she’ri Hamid Olimjon vafotidan bir yil o’tgach yozilgan bo‘lib, unda hijron o‘tida qovrilayotgan alamdiyda ayolning tuyg‘ulari yorqin aks ettirilgan. O‘quvchini she’rning ohangi o‘ziga jalb etadi. Masmuni g‘amdan iborat she’rning ohangi ham g‘amgin. Bu ohangda adoqsiz g‘am og‘ushidagi shoiraning shikasta ovozi, yo‘qsil ruhi aks etadi. Hazin ohang o‘quvchi tuyg‘ulari ko‘zini ochib, she’r ruhi tuyilishini osonlashtiradi.

1-topshiriq.

Zulfiyaning hijron motivi aks etgan she’rlaridan birini tahlil eting.

2-topshiriq.

“*Erib ketmagandim sevgingdan, Bo‘lmaslik-chun baxtingdan judo, Birga qolish uchun sen bilan Kuyaman-u bo‘lmayman ado*” misralarini tahlil qiling. Qaysi she’rdan olinganini aniqlang.

Zulfiya yoridan ayrılgan kezlarda odam o‘z g‘amini aytish imkonidan ham mahrum edi. Negaki, hukmron mafkura kengash (soviet) tuzumida yashayotgan odamlarning hammasidan yoppasiga baxtiyorlikni talab qilardi. Qayg‘u haqida gapirayotgan odam mavjud tuzumning dushmani sanalardi. Zulfiyaga, yuragi alamlardan pora bo‘lgan yorga, hijrondan o‘rtanayotgan beva ayolga, norasida farzandlarining so‘roqlariga javob topa olmayotgan bag‘ri qon onaga, baxtsizlikdan o‘rtanayotgan shoiraga g‘am to‘g‘risida, hijron haqida keragidan ortiq yozmoqda degan ayb qo‘yiladi! Bu da’voni begonalar emas, uni yaxshi biladiganlar, yonida yurganlar qilishadi. Ushbu holat she’rda, garchi, “*Yig‘laysan deb do‘stilarim ta’na qilar. Netay men?*” tarzida muloyim bir hazinlik bilan ifodalangan esa-da, bu misralar zamirida adoqsiz va unutilmas alam sirqirab yotibdi.

3-topshiriq.

Yuqoridagi chizmada aks etgan fikrlarda kengash tuzumidagi mafkuraning qaysi jihatlari aks etgan? Mazkur davrga baho berishga harakat qiling.

4-topshiriq. Zulfiya ijodini davrlarga bo‘lib o‘rganishda ko‘proq qaysi jihatlarga e’tibor berilgani ma’qul deb o‘ylaysiz? Davra suhbat tashkil qiling.

5-topshiriq.

Zulfiya hayoti va ijodiga bag‘ishlangan video rolik tayyorlang. Uni talabalar konferensiyasiga taqdim qiling.

3.Birgaliklikda bosilgan yo‘llar. Hamid Olimjon lirikasidagi mayinlik, samimiylilik va o‘ynoqi ohanglar shoir uslubini belgilash bilan birga ularning paydo bo‘lish omillariga ishora ham ekanini qayd etish lozim. Shulardan biri va birinchisi Hamid Olimjonning shaxsiy oilaviy hayotidagi baxtli to‘kislikdir. Adabiyotshunos olim, professor Hotam Umurov Hamid Olimjonning jiyani bo‘lgan. Shoirning onasi – Komila aya – buvisi, o‘z onasi – Hamid Olimjonning opasi – Asolat aya va boshqa qarindoshlaridan shoir haqida ko‘plab ma’lumotlarni olgan. Uning aytishicha, Zulfiya va Hamid Olimjon bir qizil olmaning ikki pallasi bo‘lishgan, ularning o‘n yillik hayotlari birinchi muhabbat hayajonidek, zavqli, totli, mazmundor bo‘lgan. Olim yozadi: “*Ular xonadonida fayz, baraka, shodlik, baxt hukmronlik qilgan. O’rtadagi samimiylilik va pok muhabbat ularni safarbarlikka, teranlikka, yangilik yaratishga undagan, beandoza iste’dod sohiblari bo‘lib yetishishlariga qanot bergen*”⁸. Hamid Olimjonning “Sog‘inganda”, “Xayolimda bo‘lding uzun kun”, “Ishim bordir o‘sha ohuda”, “Sevgi desam”, “Eng gullagan yoshlik chog‘imda”, “Xol” kabi she‘rlari Zulfiyaga bag‘ishlanganini sezish qiyin emas:

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.
Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Bunday jo‘shqin satrlar, yorga maftunlik, sadoqat ifodasi boshqa misralarda yana ham avjga chiqadi:

⁸ Umurov H. Tahsil chizgilari. – T.: Muharrir, 2013, 83-bet.

Harna bo‘lay aylasam jafo,
Sevinchimni boy berib qo‘ysam.
Harna bo‘lay etmasam vafo,
Sendan boshqa birovni sevsam.

(“Xayoling-la o‘tadi tunlar”)

O‘z navbatida shoir Zulfiya ham buyuk muhabbatga kuchli sabr-u sadoqat bilan javob beradi:

Men ham hali sensiz olmadim nafas.
Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

(“Bahor keldi seni so‘roqlab”)

Zulfiya o‘z xotiralarida yoshlikning sururli damlarini eslar ekan, bu damlarning haroratini Hamid Olimjonsiz tasavvur etmaydi: “*Hamid Olimjon men uchun talabchan ustoz, mehribon do‘st edi. She’rlarimni ilk bor hayajondan titrab, unga o‘qirdim. U ayovsiz tahrir etardi. Yillar o‘tdi. Yillarning biri bilan qo‘silib, Hamid Olimjon ham ketdi. Endi men satrlarimga uning nigohi bidan qarashni o‘rgandim. Hali-hanuz mening juda ko‘p qoralamalarim ish stolim g‘aladonlarida aynan shu nigohdan o‘tolmay, qolib ketadir*” (“Hayot varaqlari”, 1978).

Zulfiyaning tasavvurida Hamid Olimjonning ustozlik rutbasi shu qadar baland bo‘lgan. Va bu tabiiy edi. “*Yigirma ikki, yigirma uch yoshlardagi siyosiy, adabiy yetuklik, zamon nafasini chuqur his etish, bilim ko‘lmlarining nihoyatda kengligi, hozirjavobliklari, safarbarliklari – barcha-barcha fazilatlari menga shunday xulosaga kelish imkonini beradi*” (“U yashashni sevardi”). Zulfiyaning Hamid Olimjon bilan tanishuv yillari o‘zi ta‘kidlaganidek, davrning murakkabligiga, “ba‘zilar o‘zi bilan o‘zi, ba‘zilar boshqalar bilan” bahslashayotgan yillarga to‘g‘ri kelgan. Albatta, zamonning bu talato‘plaridan kuchli iroda va “zamonning nafasini chuqur his etish” bilan omon qolish mumkin edi. Buni ko‘zi ochiq Hamid Olimjon har nafasda his qilgan. U boshqalarni o‘z qarashlariga ishontira olish qobiliyatiga ega kuchli shaxs bo‘lgan. Hamid Olimjon ayyorlikni yomon ko‘rgan, suhabtdoshining yuziga qarab tik va keskin gapiradigan inson bo‘lgan.

Zulfiyaning akalari rahbar xodimlar bo‘lishgan. Ular o‘z ishining bilimdonlari edilar. Ammo Hamid Olimjon ulardan dunyoqarashining juda

keng ekanligi bilan ajralib turgan. Shoир teatr, kino, muzika yangiliklarini diqqat bilan kuzatar, yaxshi film va spektakllarni qoldirmay ko‘rди. U Zulfiyaning uy ishlari bilan o‘ralashib qolishini istamas, dam olish kunlari ko‘pincha shahar tashqarisiga boshlab ketardi. Shoир va shoira o‘rtasidagi muhabbatning kuchini Mirtemir Hamid Olimjonning fojiali halokatiga oid xotirasida shunday ifodalaydi: “*Hamid Olimjon ko‘zлari yumuq, olamdan bexabar yotar edi. Yozuvchilar qator turishar, Oybek og‘a, Oydin opa va ko‘pchilik. Yozuvchi Sharof Rashidov pechkaga suyangan holda yig‘lab turardi... Zulfiya xonim yig‘lab, fig‘on chekib eshikdan kirib keldi. Voajab, Hamidning ko‘zлari ochilib ketdi. Umrimda bunchalik hayron qolmaganman*”⁹.

Shu o‘rinda Hamid Olimjon va Zulfiya o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatiga ham to‘xtalish joiz. Bu borada shoira Zulfiyaning e‘tiroflari alohida qiymat kasb etadi. “*Hayot menga yanada talabchan va qattiqqa l muharrirni baxsh etdi. Ulkan shoир, o‘z ona tili va adabiyotining bilimdoni, kam uchravdigan qobiliyat va intizom sohibi, do‘srlarga mehribon, dushmanlarga ayovsiz Hamid Olimjon faqat mening turmush yo‘ldoshim va farzandimning otasi bo‘libgina qolmasdan, ayni chog‘da qalbim va ruhimga uyg‘un hamrohim va sezgir maslahatchim ham edi. Men undan fikrlashni, mehnat qilishni va she‘r yozishni o‘rgandim. Uning ijod muktabida ta‘lim oldim*”. Ular o‘rtasidagi bu xil munosabat ilk uchrashuvidan boshlangan deyilsa ham yolg‘on bo‘lmaydi.

Shu tariqa boshlangan adabiy suhbatlar ularning birgalikdagi hayotlari mobaynida to‘xtovsiz davom etadi. Hamid Olimjon va Zulfiya birga kechirgan o‘н yillik umrlari davomida ikkita farzand ko‘rishdi. Bolalarning birini Hulkar, ikkinchisini Omon deb atashdi. Vatanini, yurtini to‘lib-toshib sevgan va ta‘riflagan Hamid Olimjon oilasini, farzandlarini ham shunday ardoqlardi. Qiziga bag‘ishlab “Hulkarning she‘ri” bitigida yozadi:

Seni ko‘rsa ochilsin gullar,
Seni ko‘rsa yonsin bulbullar,
Seni ko‘rgan bari topsin jon,
Sen yurgan yer ko‘rmasin xazon.

Shoир o‘g‘li Omonga atab ham she‘r yozgan. Shoир ijodiga xos yetti bo‘g‘inli uslub – o‘ziga xos o‘ynoqi ohang, ravon va yengil o‘qilishi, quyma satrlar nafaqat ertaklari, balki quyidagi kabi she‘rlarida ham namoyon bo‘lgan. Adabiyotshunos olim H. Umurov bu she‘rni buvisi

⁹ Umurov H. Tahsil chizgilari, 84-b.

Komila ayadan eshitganini va u H. Olimjonning birorta to‘plamga kiritilmaganini aytib o‘tadi:

Tug‘ilganman yoz kuni,
Mevalar pishganida,
Shaftolilar to‘kilib,
Tagiga tushganida.
Qovunlar shira bosib,
Tog‘day og‘ir bo‘lganida
Tarovuzning katta qorni
Shakarga to‘lganida.
Shuning uchun o‘zim ham
Qovundek mazalikman.
Ayam tandirga yopgan
Non kabi jizzalikman.
Omon degan polvonman,
Juda ham ovozam zo‘r.
Ishonmasang beri kel,
Men bilan olishib ko‘r.
Uncha-muncha odamni
Bir ursam sulataman.
G‘ayrat qilsam bir o‘zim
Tarovuzni qulataman.

Bolalarga atalgan she‘r lar, odatda, majoziy tasvirga boyligi, obrazliligi bilan qiziqarlidir. She‘rni o‘qir ekanmiz, yoz manzarasida mevalar shirasini tuyamiz. Mevalarning o‘ziga xos ta’rifsi asnosida bolaning ichki qiyofasi ochiladi. G‘ayrat qilsa tarvuzni ham qulatishi mumkinligi tasvirida bolaning yumoristik qiyofasi namoyon bo‘ladi. Mazkur she‘r shoirning o‘g‘li Omon: “*Dada, dada, opamga atab she‘r yozibsiz, menga ham yozib bering*”, – deb iltimos qilganidan so‘ng yozilgan ekan¹⁰.

Zulfiya bilan kechgan yillar Hamid Olimjonni baxt va shodlik kuychisiga aylantirgan bo‘lsa, o‘sha yillarning shukuhi Zulfiyani sabr-u sadoqat bobida sinadi va shoirani hijron kuychisiga aylantirdi.

¹⁰ Umurov H. Tahlil chizgilari, 94-95-betlar.

1-chizma

“Ular xonadonida fayz, baraka, shodlik, baxt hukmronlik qilgan.
O‘rtadagi samimiylar va pok muhabbat ularni safarbarlikka,
teranlikka, yangilik yaratishga undagan, beandoza iste’dod
sohiblari bo‘lib yetishishlariga qanot bergen”

2-chizma

Hamid Olimjonning muhabbat lirikasi

“Sog‘inganda”

“Ishim
bordir o‘sha
ohuda”

“Sevgi
desam”

“Xol”

“Eng gullagan
yoshlik
chog‘imda”

3-chizma

“Hayot menga talabchan va qattiqqo‘l muharrirni baxsh etdi.
Ulkan shoir, o‘z ona tili va adabiyotining bilimdoni, kam
uchraydigan qobiliyat va intizom sohibi, do‘srlarga mehribon,
dushmanlarga ayovsiz Hamid Olimjon faqat mening turmush
yo‘ldoshim va farzandlarimning otasi bo‘libgina qolmasdan, ayni
chog‘da qalbim va ruhimga uyg‘un hamrohim va sezgir
maslahatchim ham edi. Men undan fikrlashni, mehnat qilishni va
she‘r yozishni o‘rgandim. Uning ijod mакtabida ta’lim oldim”.

Zulfiya

1-topshiriq. Hamid Olimjonning “Eng gullagan yoshlik chog‘imda”
she’rida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarini aniqlang.

2-topshiriq. Zulfiyaning Hamid Olimjonga bag‘ishlab yozilgan
she’rlarini topib o‘qing. “Zulfiya ijodida hijron motivi” degan mavzuda
ijodiy ish yozing.

III BOB. ZULFIYA IJODINI O'RGANISH YO'LLARI

Reja:

1. Zulfiya she'riyatini o'rganish yo'llari.
2. Zulfiya ijodining ahamiyati.

Tayanch tushunchalar:

Metod, uslub, usul, o'rgatish yo'li, she'r, mavzu, g'oya, lirik qahramon

1. Zulfiya she'riyatini o'rganish yo'llari. Zulfiya ijodini o'rganish uchun belgilangan vaqtdan imkon qadar unumli foydalanish uchun shoiraning tarjimayi holini she'rlari bilan bog'lab o'qitish maqsadga muvofiq. Zulfiyaning hayot yo'li bilan tanishish o'qirmanlar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Adibaning umryo'li bo'yicha darsda qisqacha suhbatlashilganda uning shaxsiyatiga xos fazilatlarni kashf qilishga, Zulfiya ulg'aygan oilaviy muhitga, she'riyati mavzusining turosaligiga talabalar e'tibori tortiladi. Bu yo'nalishda tuzilgan savoltoshiriqlar bilan ishlanadi.

Shoira Zulfiya she'rlarini o'rgatish bo'yicha birinchi darsning maqsadlari quyidagicha belgilangani samarali bno'ladi:

a) *tarbiyaviy maqsad* – talabalarga insonning sirli tuyg'ularini tuyishni o'rgatish;

b) *ta'limiylar maqsad* – Zulfiya she'rlarini o'rganish va tahlil qilish;

d) *rivojlantirish maqsadi* – talabalarda tuyg'udoshlik xislatlarini rivojlantirish.

Shoira she'rlari tahlili uning tarjimayi holiga bog'lab yuborilgani ma'qul. Chunki Zulfiyaning she'riyatidagi nozik chizgilarni, go'zal tashbehlarni, "inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan" dardni his qilish, tuyish uchun uning shaxsi haqida imkon qadar ko'proq va chuquarroq bilimga ega bo'lish lozim. Shoiradagi tirishqoqlik, fidoyilik, jonkuyarlik singari fazilatlar otasi Isroil temirchidan, so'zga muhabbat, go'zallikka oshuftalik singari sisatlar sirtdan xoksor va mute, ammo botinan g'oyatda mustaqil hamda oqila ayol bo'lgan onasidan o'tganligi haqidagi ma'lumotlar bilan atroflicha tanishtirib boriladi. Domla shoiraning har bir she'ri tahliliga kirishishdan oldin uning hayot yo'li to'g'risidagi dalillarning o'rganiladigan asarga mos birortasidan o'rinali foydalanishga urinishi kerak.

Zulfiya ijodini o'rganishga ajratilgan soatda shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha tahlil, so'ng "*Tun*" she'ri, ikkinchisida esa, "*Bahor keldi seni so'roqlab*" va "*Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh*" she'rlari o'rganilishi lozim. Agar o'qituvchi talabalari qalbini to'laligicha zabit etishni istasa, o'tilajak she'rlarni kitobdan o'qimay, yoddan aytib bergani ma'qul. Bu talabalarga juda qattiq ta'sir qiladi, ularni she'riyatga yaqinlashtiradi. She'rni yoddan o'qiyotganda o'qituvchi ifoda tarzi, qiroat ohangi bilan tinglovchini rom qila bilishi lozim. Domlaning o'zi lirik qahramonni to'lig'icha his qilishi, uning holatiga kirishi, she'rni o'qiyotganda naq Zulfiyaga aylanishi lozim. Agar she'r chinakamiga ifodali o'qilgan bo'lsa, tinglovchi ko'nglini to'lqinlantiradi. She'r qiroatidan so'ng bir oz tin olish, o'qirmanlarni o'z holiga qo'yish lozim. Inson yaxshi she'r eshitganda, ko'ngliga ulkan bir zavq keladi. Tinglovchining butun vujudini yengil titroq qurshab oladi. O'qirman hayajonini berkitolmay qoladi.

"Tun" she'rini aytib berish uchun darsning 3-4 daqiqasi sarflanadi. So'ng uning matnini tahlil qilishga o'tiladi. Avvalo, she'rning dastlabki ikki misrasiga o'qirmanlarning diqqati tortiladi.

Tog' ortiga o'tib ketdi kun,
Sekin cho'kdi toza, salqin tun...

Bir qaraganda kunning tog' ortiga o'tib ketishi va tunning kirib kelishi tabiiy hol. Talabalar bu holatga tug'ilganidan beri duch kelishadi. Kimdir bunga e'tibor qilgan, kimdir beparvo o'tkazgan. Lekin bu holatning shoirona tasviri, bu tunda shoiraning bedorligi, qop-qorong'i tunning toza deb ifodalanishi, uning kirishini "*cho'kdi*" tarzida ta'riflanishi o'qirmanni atrofqa, yon-veridagi hodisalarga boshqacharoq ko'z bilan qarashga da'vat qiladi. Bu ikki misra she'rga kirish vazifasini ham o'taydi va tinglovchini ruhan tunga olib kiradi. To'g'ri, talaba shoirta talqinidagi tunning go'zalligi bilan to'qnashishi mahol, ularga hozircha tungi bedorlik begona. Lekin bu ikki misra zamiridagi sokinlik, o'ziga xos ohang yosh she'rxonni ham qaysidir darajada shu holatga olib kiradi.

She'rning dastlabki bandi ohangi tamomila o'zgacha ekanligi o'qirmanlarga sezdirilishi kerak.

Men deraza ochganim chorbog',
Sokin uxlari tun ko'rpasida.
Mayin qo'shiq yoyilar har yon,
Esib o'tgan yel sharpasida.

Ilk misralardagi tunga munosib sokinlik o‘rniga dastlabki bandda hayotbaxsh, quvnoq ohang, tabiatning cheksiz go‘zalligini ko‘ra oladigan, undan zavqlana biladigan, tuyg‘ularini ifodalashning uddasidan chiqadigan xassos qalbli lirik qahramon tiynati bor bo‘yi bilan aks etadi. Misralarda “*tun ko‘rpasiga burkangan chorboq*”qa deraza ochgan shoira holati, yel sharpasidan taralayotgan mayin qo‘shiqni ilg‘agan inson hissiyoti, ko‘ngli o‘qirman tasavvurida ma’lum darajada gavdalanadi.

She’rning ikkinchi bandida o‘qirmanning diqqati tunni allalab oqayotgan suvgaga tortiladi. Talabalar suvning oqishini umr bo‘yi ko‘rib kelishadi, lekin uning tunni allalashi bilan birinchi marta Zulfiya talqinida duch kelishmoqda. Bu chirolyi tashbeh o‘qirman nazaridan chetda qolmasa, katta estetik samara berishi tayin. Banddagagi qolgan uch misra shoiraning bedorligi holatini ifodalaydi. Uning hamrohi: “*parcha qog‘oz*”, “*kichik bir qalam*”, “*boshi uzra porlab turgan chiroq*” va “*suv allalayotgan sokin tun*”. Bedor lirik qahramon “*berilib qulog sol*” ayotgan tunning kuyi, bundan o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatda ruhiga quyilib kelayotgan xayollarning rang-barangligi, ko‘ngildan kechayotgan tuyg‘ularning ifodasiga so‘z topolmay shoshib qolayotgan qahramon holati bolalarning ko‘z oldiga keltirilishi zarur. Sokin tunda ko‘ngilda sodir bo‘layotgan kechmishlarga rang axtarib, topa olmay qiynalayotgan insonning holatini his qilish mumkindir, lekin uni so‘zga aylantirish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun shoirlilik iste’dodi kerak. Shoira-ku go‘zal she’rni yozdi. Endi uni o‘qirmanning qalb mulkiga aylantirish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. O‘qirmanlar lirik qahramon holatini o‘z ko‘ngillari bilan tuyib, o‘z so‘zlarini bilan ifodalashga urinib ko‘rishlari lozim.

“Tun”ning to‘rtinchisi bandida parvona haqida so‘z yuritiladi:

Sof yel esar... Parvona uchar,
Chiroq atrofida o‘rgilib,
O‘zin urib part¹¹ bo‘ladi-yu,
Stolimga tushadi kelib.

Shoira chirog‘i atrofida “*o‘rgilib*”, o‘zini olovga urib “*part bo‘lgan*” parvona o‘zbek mumtoz adabiyotida ko‘pincha ishq o‘tiga o‘zini qurban bergen oshiq timsolida namoyon bo‘ladi. Mazkur she’r da talabalar parvona timsolida nimani yoki kimni ko‘rganlarini tushuntirib berishga urinsalar ma’qul bo‘lardi. Keyingi bandlarda shoiraning tun ta’sirida

¹¹ part - kuyish, halok bo‘lish.

ko‘nglidan kechayotgan rangsiz, ismsiz tuyg‘ularning she’r shaklida oldidagi bir parcha qog‘ozga to‘kilishi jo‘ngina “men yozaman” shaklida ifodalangan.

Shoiraning ta’sirchan yuragi – dunyo go‘zalligiyu xunukliklari oldida himoyasiz, yalang‘och. Shu bois uning yozmaslikdan boshqa iloji yo‘q. Hayot hodisalari tufayli ko‘nglida sodir bo‘layotgan bezovtalik, dard unga tinchlik bermaydi. U yozmasa tuzalmaydi. Yengil bo‘lolmaydi. Unga tunlari uyqu bermay bedor qilgan ham shu – dard. Ko‘ngilda paydo bo‘lgan dard so‘z bilan moddiylashgach, qaysidir darajada, boshqalarga ham xos bo‘lishi, ularning ko‘ngil torlarini chertishi mumkinligi o‘qirmanlarga anglatilishi zarur. Shuning uchun ham shoiraning she’rlari o‘zgalarga ta’sir qiladi, huzur bag‘ishlaydi. She’rda aks etgan dard tufayli asar qahramoni tunni bedor o‘tkazadi. Hulkar yulduzi darak keltirgan yorqin tongni bedor qarshilaydi. Tunni kuzatib, otayotgan tongni kutib oladi. Bu o‘rinda shoira tongning tasviriga kirishmaydi. U tunning go‘zalligi qarshisida lol. Lirik qahramon derazasi qarshisidagi chorboqdan tun ko‘rpasini yig‘ishtirib olayotgan tongni qarshilaydi.

She’rning so‘nggi ikki misrasi: “*Ko‘zlarimda erib ketdi tun, Yoyilmoqda, yorqin juvon kun*” ham o‘ziga xos badiiy va majoziy ma’no tashiydi. O‘qirmanlar bu obrazli tashbehni butun nozikligi bilan anglashga urinib ko‘rishlari kerak. Ko‘z oldida erib ketgan tun go‘zalligi ko‘nglida g‘alayon qilayotgan lirik qahramon ne umidlar bilan “*yorqin juvon kun*” bo‘lmish tongni qarshilamoqda. Go‘zal tunning tugallanishi tasviriga bag‘ishlangan bu misralar “**Tun**” she’rining ham mohirona yakunidir. Shu o‘rinda bir qator savollarni o‘rtaga tashlab, lirik qahramonning yorqin tuyg‘ularini, uning tun tarovatini namoyish etish uchun qo‘llagan go‘zal badiiy chizgilarini topishga, bu haqda o‘ylashga, fikr aytishga, matn mazmuni yuzasidan mushohada yuritishga undash go‘zal ko‘ngil sohibini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shoiraning “**Tun**” she’ri yod olishnga berish bilan birga boshqa she’rlarning qay birini yodlash ixtiyorini talabalarning o‘zlariga qoldirilishi mumkinligini ham ta’kidlash joiz. Talabaga berilgan erk, ixtiyor uning ruhiy kamolotini ta‘minlashga ta’sir o‘tkazadi.

Zulfiiyaning hijron mavzusiga bag‘ishlangan ikki she’ri tahlili bilan shug‘ullanish ham yoshlarda ezgu ma’naviy fazilatlar shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Ma’lumki, shoira ijodida ayrılıq, hijron, sadoqat mavzusi salmoqli o‘rinni egallaydi. Shu mavzudagi o‘n besh bandli “**Bahor keldi seni so‘roqlab**” she’rini o‘qib berish uchun 6-7 daqiqa vaqt ketadi. Domla she’rning tahlilga o‘tishdan oldin Hamid Olimjonning

“O’rik gullaganda” she’ri to‘g‘risida bir oz ma’lumot berib, bir necha bandni yoddan aytib berishi **“Bahor keldi seni so‘roqlab”** she’rining tushunilishini yengillatadi. Zulfiyaning bu she’rini, umuman, uning hijron mavzusidagi barcha she’rlarini dardsiz, hissiz o‘qishning hech iloji yo‘q. Har bir odam qaysidir shaklda duch kelishi mumkin bo‘lgan insoniy dard, alam, o‘kinchning she’rga evrilgan samimiyl ifodasi she’rxonning ko‘nglini titratmay qo‘ymaydi. Titragan ko‘ngilning aksi o‘qirmanning hissiyotini, ruhiyatini, ovozini ham titratishi mumkin. She’rda mujassamlashgan ma‘shuqa, bahor, sarin yel timsollari bir dardga – sog‘inch dardiga mubtalo. Ular uchalasi ham bir insonni – o‘rik gullarining maftuni bo‘lgan, bahor yellarini *“baxtim bormi deya”* so‘roqqa tutgan, ularning uchalovini ham birday yaxshi ko‘rgan, xayolchan, jingala sochli yigitni – shoir Hamid Olimjonni sog‘ingan. Bu dard uch mushtiparni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni bir-birini suyashga, bir-birining sezimlarini his qilishga undaydi. Mana shu tuyg‘ular ko‘nglidan o‘tkazilar, she’r ohangida bular aks ettirilar ekan, talabalarning qalbiga kirib borilgan bo‘ladi.

Asarning birinchi to‘rtligi o‘z mazmun-mohiyati bilan she’rga kirish vazifasini o‘taydi. Lirik qahramonning atrofidagi hamma narsa bahor qaytib kelganidan darak beradi. Tabiatning qonuni shunday – fasllar aylanib qaytib kelaveradi. Go‘zallikka burkangan olam – to‘kis. Unda bultur bor bo‘lgan narsalarning hammasi bu yil ham mavjud. Lekin lirik qahramon uchun olam to‘kis emas. U nimanidir qo‘msaydi, nimanidir qidiradi, topgisi keladi.

She’rning ikkinchi bandini tahlilga tortganda talabalarning diqqati lirik qahramon murojaat qilayotgan odamning qanday insonligini aniqlashga qaratilishi zarur:

Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,
O‘rik gullarining eding maftuni.
Har uyg‘ongan kurtak, hayot bergen kabi
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.

Bahorni yaxshi ko‘rgan, o‘rik gullariga maftun bo‘lib, unga qator she’rlar bitgan, bahorda uyg‘ongan har bir kurtakni ko‘zlariga surtib o‘padigan odamning tabiatini, hissiyot olami qandayligi haqida talabalar o‘ylab ko‘rishlari lozim. Bahorning uni izlab sarsari kezishi bu shaxsning qandayligini ko‘rsatuvchi asos deyish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rilishi kerak. She’rdagi: *“Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni, Ul ham yosh to‘kdi-yu chekildi nari”* misralari ko‘klamga muhabbat qo‘ygan, bahorni ham o‘ziga oshiq aylagan shaxs tabiatini haqida ba‘zi xulosalar chiqarishga

asos berishi ayon bo‘ladi. Talabalar e’tibori bahor nega aynan qishning yoqasidan tutganligiga qaratilishi zarur. O‘qirmanlar ko‘klamning yaralish, qishning esa, xazon etish, yo‘qotish fasli ekanligini bilishadi. Minglab yillardan buyon olamni ramziy idrok etishga odatlangan xalqimizning badiiy tajribasi talabalar tomirlarida ham mavjud. Ana shu tajriba “qish” timsoli bu o‘rinda faqat fasl ma’nosida emas, balki yo‘qotish, o‘lim ramzi sifatida kelayotganligini ham anglashga yordam beradi. Qishning ko‘z yoshi to‘kishi, bahorga javob topolmay, nari chekinishi bilan lirik qahramonning bahor shabbodasi savollari qoshida lol qolishi holatidagi uyg‘unlik, tasvirdagi samimiylilik o‘qirmanlarning nazaridan chetda qolmagani ma‘qul. Talabalar shabbodaning aynan unga – shoир yigitga o‘z husnini, ko‘rkini yozib ko‘rsatmoqchi bo‘lib bog‘lardan, yashil qirg‘oqlardan uni qidirgan holati, sabri tugab, bo‘ronga aylanib jarliklarga bosh olib ketishi, alamdan tog‘larning toshini soylarga qulatishi tasvirini izohlashga urinib ko‘rsinlar. Lirik qahramonning yonoqlari ol emas za‘faron rangda ekanligining sabablarini topishga urinish o‘qirmanlarning ma’naviy kamolotiga yordam beradi.

Yotog‘iga kirib lirik qahramonni savolga tutgan tong yelining holatini o‘qirmanlar his qilishlari uchun she’rdan yelning savollarini qayta o‘qish kerak. O‘qiganda ham shunday o‘qish kerakki, o‘qirmanlar yelning dardi bir insonning dardicha kuchli ekanini tuysinlar. Bu misralarni o‘qiganda tomoqqa tiqilgan yig‘idan ovozning titrashi tabiiy. Lirik qahramonning, yelning, bahorning holatini his qilgan o‘qituvchi o‘zining hissiyotini yashirmasligi kerak.

...Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?

Yelning sog‘inch va alam to‘la savollari qarshisida lol qolgan, o‘ttizga kirmay sochlariqa oq tushgan, qora libosga o‘rangan parishonhol shoira ne qilarini bilmay, uning etagidan tutib, u bilan birga qabristonga – oshiq yoniga ketadi. Shu o‘rinda talabalar yelning alam va g‘amning zo‘ridan aftoda kezib, hali uyg‘onmagan daraxt kurtaklarini ochib unga g‘amnok so‘zlashi, alamdan endi ochila boshlagan gullar g‘unchasini choc-chok etishi holatini izohlashga urinib ko‘rsinlar. O‘qirmanlar she’rda doimiy ravishda ro‘y beradigan tabiat hodisalarini bilan shoira dardining mohirona uyg‘unlashtirilganligiga e’tibor qilishlari va buni qaysi she’riy satrlarda namoyon bo‘lganini ko‘rsata bilishlari maqsadga muvofiq.

Inson ham, tabiat ham Allohning irodasi oldida ojiz. Yel ham ma'shuqa singari bu yo'qotishga ko'nikishga majbur. Inson tirik ekan, hayotning qonun-qoidalari, talablari, insonlik, farzandlik, onalik burchi kabi tushunchalar bilan hisoblashishga majbur. Qolaversa, shoira ikkinchi bir odam hayotini davom ettirish, uning jo'shqin, zabardast ovozini so'ndirmaslik uchun ham yashashi kerak. She'rning so'nggi bandidagi:

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham

misralarida aks etgan samimiy iqror, ikki kishi uchun yashashday mas'uliyatni zimmasiga olgan lirik qahramonning qat'iy ishonchi o'qirmanlar ko'nglida chuqur ma'naviy iz qoldirishi tayin. Ular so'nggi bandning ifoda tarziga jiddiy e'tibor qilsalar, anchagina estetik kashfiyotga duch kelishlari mumkin. Chunonchi, she'rning so'nggi bandidagi misralarda "h" tovushining to'rt o'rinda ishlataligani, "t" bilan boshlanadigan ikki so'zning yonma-yon keltirilgani, "qalbimda", "qo'limda", "yodimda" so'zlarining ichki ohangdoshligidan mohirona foydalanilgani singari jihatlar she'rning ta'sirchanlik darajasini oshirgan, uni hijron lirikasining yuksak namunalardan biriga aylantirgan omillar ekanligi oydinlashadi.

Shoiraning "*Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh*" deb atalgan yana bir she'ri ham e'tiborga loyiqliq. Ushbu she'r ham oldingisi singari dardli, iztirobli ohangga to'la.

She'r ifodalisi o'qilgach, asar tahlili matnga tayangan holda olib boriladi. Eng avval birinchi to'rtlik qayta o'qiladi. O'qirmanlar yordamida lirik qahramonni qabr tomon yo'l olishga undagan tuyg'u nimaligi aniqlanadi. Birinchi bandda gul keltirishning bir-biriga tamomila zid ikki xil shakli tasvir etilgan. Ularning bir-biridan farqli tomonlari haqida o'ylab ko'rish lozim. Lirik qahramonning: "*Endi har chog' men eltaman gul*", – deyishi hayot mantig'iga qanchalar mos kelishi borasida o'qirmanlar fikri so'ralgani ma'qul.

Shoiraning ayriliq tuyg'ulari aks etgan she'rlerida unga hamisha tabiat hamillardligi bitikning ikkinchi misrasida o'z aksini topgan:

Keldim. Uzoq qoldim men sokin,
Sening aziz boshingda yolg'iz,
Osmon tiniq edi va lokin,
Parcha bulut yetib keldi tez.

Osmon tiniq bo‘lishiga qaramay, parcha bulutning qayerdandir tez yetib kelishi, lirik qahramonning ko‘zlaridagi jiqqa yoshni ko‘rib, uning iztiroblariga chidolmay, duv-duv ko‘zyosh to‘kishi (yomg‘ir bo‘lib yog‘ishi) tasvirining ta’sir darajasi, samimiyligi, haqqoniyligi, hayotiy asosi haqida talabalar bilan fikrashish zarur. Shye‘rning so‘nggi bandidagi dastlabki ikki misra o‘qilganda, ikki munlug‘ jonning holatidan o‘qirmanlar qalbida ismsiz bir og‘riq paydo bo‘ladi. Bu og‘riq ko‘zlarga yosh qalqitishi ham mumkin. Qani edi, dunyo teskari aylansayu, erta yo‘qotilgan odam: “Keldingmi?”— deb bosh ko‘tara qolsa. O‘qirmanlar ko‘nglida shunday istak milt etadi. Ana shunday tuyg‘uni hosil qilish domla uchun eng baland maqomga yetishmoqdir.

Har ikki she‘r talabalarga hayot faqat shodlik, baxt va o‘yin-kulgudan iborat emas, balki unda mana shunday og‘ir, azobli, noiloj holatlar ham mavjudligi, inson hayot ekan baxt va baxtsizlik, shodlik va alam, dardli va quvonchli damlar insonga esh ekani Zulfiya she‘rlari misolida ta’kidlanadi. Shunday qilinganda talabalar chinakam hayotning murakkab va chigalligini anglaydilar, asar qahramonlari timsoli orqali o‘zgalarning tuyg‘ularini his qilishni o‘rganadilar. Hayot mashaqqatlariga ruhan tayyorlanib boradilar.

4. Zulfiya ijodining ahamiyati. Zulfiya lirikasi, uning doston, ocherk, badiiy maqolalar hamda adabiy suhbatlari zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shoira yangi o‘zbek adabiyotida ilk bor insonga xos eng nozik sezimlar, murakkab hislar va chigal tuyg‘ularni butun serqirraligi bilan ayol nuqtayi nazaridan turib ifodalash mumkinligini ko‘rsatdi. E’tibor qilingan bo‘lsa, o‘zbek ma‘rifatchilik va jadid adabiyotida ayol ijodkorlar deyarli ko‘rimmagan edi. Sovet davrida ham Zulfiyaga qadar o‘ziga xos estetik hodisaga aylangan ayol ijodkor bo‘limgandi. Chunki tezkor zamonning daqiqalarda o‘zgaruvchan xususiyatlari va bularning inson ruhiyatidagi nuqsini aks ettirish oson emas edi. Buning uchun muayyan tajriba, badiiy-estetik an‘ana shakllantirilishi kerak bo‘lardi.

Zulfiya ana shunday badiiy-estetik tajriba shakllanishini kutib o‘tirmay, yangi zamon va uning odamlariga xos tuyg‘u va kechinmalarni o‘ziga xos yo‘sinda ifodalashga dadil qo‘l urgan birinchi o‘zbek ayol ijodkorlaridan bo‘ldi. Shoira ijodining qiymati faqat uning birinchi bo‘lganida emas, balki betakror va qaytarilmas bo‘lganidadir. Ya‘ni shoira yangi davr odamlariga xos jihatlarni, ularning ruhiyat va sezimlaridagi o‘zgarishlarni butun nozikligi bilan his qilgan hamda bitiklarida ularni yaqqol aks ettira bilgan ijodkor bo‘ldi.

U o‘zining shaxsiy dardini umuminsoniy muammoga aylantira bilgan ilk o‘zbek shoirasasi edi. Ungacha birorta zamonaviy shoir o‘z yo‘qotishlaridan butun boshli mukammal poetik manzara yarata olgan emasdi. Buning ustiga, bu hijroniy satrlar yangi zamon kishisining kechinmalari bo‘lib, yangicha o‘ylayotgan, yangicha ta’sirlanayotgan odam ruhiyatidagi chizgilarni ko‘rsatishi bilan ulkan ahamiyat kasb etardi.

Zulfiyaning faoliyati va ijodi uning arbobligi va rahbarligi nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega edi. Chunonchi, u Osiyo va Afrika adabiyotlari namoyandalari boshini biriktirish, ularni go‘zallik,adolat, ozodlikday tengsiz ne‘matlar sari yo‘naltirishda boshlovchilik qildi. O‘z vaqtida Zulfiyaning nomi mazlum xalqlarni birlashtiruvchilik timsoliga aylangandi. Unga xalqaro “Nilufar” mukofoti bejizga berilmagandi.

Shuningdek, shoira Zulfiyaning shaxsiy hayoti ham millat ayollariga ibrat maktabi bo‘lib xizmat qildi va qilmoqda. Negaki, minglab o‘zbek ayollarli Zulfiya shaxsiyatidagi sadoqat, vafo, qanoat tuyg‘ulari ta’sirida tarbiyalanib keldilar va keladilar. Uning shaxsiyatiga xos halollik, g‘urur, nazokat, odob va hayo butun boshli o‘zbek ayol ijodkorlari armiyasi uchun ibrat maktabi bo‘lib keldi.

Shoiraning nomi o‘zi dunyodan o‘tgach ham zamonaviy o‘zbek qizlarining iqtidori, salohiyati va iste’dodini sinash, o‘stirish va rag‘batlantirish vositasi bo‘lib kelmoqda. Hayotning ko‘plab tarmoqlari bo‘yicha eng talantli o‘zbek qizlarining Zulfiya nomidagi mukofotga loyiq ko‘rilayotgani jamiyatdagi minglab qizlarning o‘z ustlarida ishlab, o‘zlarida mavjud qobiliyatni takomillashtirishlariga omil bo‘lmoqdaki, bular Zulfiya ijodi va shaxsiyatining millat hayotida ulkan ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatib turadi.

Xullas, Zulfiya betakror shaxs va o‘ziga xos ijodkor. Uni va ijodini chuqurroq bilish kishi saviyasini yuksakroq, demakki, davrining talablariga munosibroq bo‘lishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Savol va topshiriqlar:

1. Zulfiya hayoti va ijodi haqida ma’lumot bering.
2. Zulfiyaning ijodkor bo‘lib yetishuvchiga ta’sir qilgan omillar haqida so‘zlang.
3. Zulfiya ijodida publitsistikating o‘rnii haqida fikr bildiring.
4. Zulfiya she’riyatining yetakchi omillari nimalar bilan belgilanadi?
5. Zulfiya ijodida urush mavzusi haqida fikr bildiring.
6. Zulfiya hijron va sadoqat kuychisi degan fikrni izohlang.
7. Zulfiyadan o‘zingiz yoqtirgan biror she’r ni tahlil qiling.

8. “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!” she’rining yaratilish tarixi haqida so‘zlab bering.

9. Maktab darsliklarida Zulfiyaning qaysi asarlarini o‘qigansiz?

10. Zulfiyaning adabiy-estetik qarashlari deganda nimani tushunasiz?

Mavzuning o‘zlashtirilganini aniqlashtirish uchun test topshiriqlari:

1. Salqin sahrlarda, bodom gulida,

Binafsha labida, yerlarda bahor.

Qushlarning parvozi, yellarning nozi,

Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor. **Mazkur misralar Zulfiyaning qaysi she’ridan olingan?**

A. “Bahor keldi seni so‘roqlab”

B. “Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh?”

C. “Sensiz”

D. ”Sen qaydasan yuragim?”

2. “Salom mening aziz dugonalarim,

Azizim, lobarim, chevarim qizlar!

Ey toza qalbimning oshnolari,

Kuylarim ilhomni, sevarim qizlar! **Mazkur misralardan qofiyadosh so‘zlarni toping.**

A. Chevarim-sevarim

B. Dugonalarim

C. Qizlar

D. Aziz, azizim.

3. Urush! Noming o‘chsin jahonda,

Hamon bitmas sen solgan alam.

Sen tufayli ko‘p xonadonda

Ota nomli buyuk shodlik kam.

Ushbu misralar Zulfiyaning qaysi she’ridan olingan?

A. “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”

B. “Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh?”

C. “Sensiz”

D. ”Sen qaydasan yuragim?”

4. “Endi bilsam, onamning bitta o‘zлari hozirgi zamon bolalariga har xil axborot beruvchi o‘nlab manbalar o‘rnini bosar ekanlar. Agar iste’dodim bor bo‘lgan bo‘lsa, uning chashmasi – onam”. **Ushbu fikrlar Zulfiyaning qaysi asaridan olingan?**

- A. «Hayot varaqlari”
- B. “U yashashni sevardi”
- S. “Tiriklar yodi”
- D. “Yurtim xaritasi – mening yuragim”

5. Zulfiya uzoq muddat qaysi jurnalda faoliyat yuritdi?

- A.”Saodat”
- B. “Guliston”
- S. “Tafakkur”
- D. “Yoshlik”

6. Zulfiyaning “Mushoira” dostoni qayerda yozilgan?

- A.Toshkentda
- B.Hindistonda
- S.Birmada
- D. Moskvada

7. “Yillar o‘tgan sayin men bu mo‘tabar zotni yaxshiroq tanib borayotganday bo‘laman. U tobora mening yuragimga yaqinroq kelib, jon-jonimga singiydi”. **Zulfiya mazkur fikrlarni kimga nisbatan aytgan?**

- A.Onasiga
- B. Otasiga
- S.Akasiga.
- D.Turmush o‘rtog‘iga

8. “Olov va mehnat mahorat bilan birikkanda inson ko‘p ishlarning uddasidan chiqishi mumkinligini men bolalikdan anglab yetdim”. **Zulfiya ushbu fikrlarni kimga nisbatan aytgan?**

- A.Otasiga
- B. Onasiga
- S.Akasiga.
- D.Turmush o‘rtog‘iga

9. Zulfiyaning “Yuragimga yaqin kishilar”, “Sen qaydasan, yuragim”, “Ne baloga etding mubtalo”, “Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh”, “Hayot jilosii”. “O‘rik gullaganda” she’rlarida qaysi mavzu yetakchilik qilgan?

- A. Hijron mavzusi
- B. Baxt mavzusi
- C. Sadoqat mavzusi.
- D. Tinchlik mavzusi

10. “...yosh bo‘lishiga qaramay, vogelikka keng, dadil nazar bilan qaraydi va hamma narsa haqida sodda qilib, o‘z tili bilan so‘zlab berishdek noyob qobiliyatga ega. Uning tili xalq nutqining durdonalariga boy bo‘lganligidan aniq, goho sal betakkallufroq va juda ham ifodali”. **Zulfiya kimni shunday ta’riflagan?**

- A. Abdulla Oripovni
- B. Erkin Vohidovni
- C. Xurshid Davronni
- D. Halima Xudoyberdiyevani

11. “Koshki edi, men yoningda Turgan bo‘lsam o‘sha dam. Kirmasmidim men qoningga, Bermasmidim jonni ham”. **Zulfiya ushbu misralarni kimga bag‘ishlagan?**

- A. Hamid Olimjonqa
- B. Onasiga
- C. Hadicha Sulaymonovaga
- D. Mustay Karimqa

12. Men o‘tgan umrga achinmay qo‘ydim,
Hech kimda ko‘rmayin umrimga o‘xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,
Izzat nima — bildim.
Shu-da bir yashash!..

Zulfiyaning 1973-yilda yozilgan ushbu she’ri nima deb nomlangan?

- A. “Men o‘tgan umrga...”
- B. “Sensiz”
- C. “Sen qaydasan yuragim”

D.”Uni Farhod der edilar”

13. “Ular xonadonida fayz, baraka, shodlik, baxt hukmronlik qilgan. O’rtadagi samimiylar va pok muhabbat ularni safarbarlikka, teranlikka, yangilik yaratishga undagan, beandoza iste’dod sohiblari bo‘lib yetishishlariga qanot bergen”. **Mazkur fikrlar kimga tegishli?**

- A. Hotam Umurovga
- B. Sharof Rashidovga
- C. Sarvar Azimovga
- D. Salohiddin Mamajonovga

14. “Mana bir umrni yashadim sensiz, Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib”. **Mazkur misralar shoiraning qaysi asarida uchraydi?**

- A. “Sensiz”
- B. “Men o‘tgan umrga...”
- C. “Sen qaydasan yuragim”
- D. ”Uni Farhod der edilar”

15. – Oybek ishlayapti, deydi baxtiyor.

Xotini adibga qiladi imo.

Taqdir adibiga hamdam etgan yor

Qalamday vafodor, ilhomday zebo..

Oybek haqidagi bu misralar shoiraning qaysi dostonida uchraydi?

- A. “Quyoshli qalam”
- B. “Xotiram siniqlari”
- C. “Uni Farhod der edilar”
- D. “Mushoira”

16. “Chunki sen har bir she’ringda bira to‘la hamma gapni aytib olmoqchi bo‘lsan, vaholanki, bunday qilish yaramaydi. Keyin bilasanmi, she’r ni oxiridan boshlab yozish kerak”. **Mazkur fikrlar egasini aniqlang.**

- A. Hamid Olimjon
- B. Zulfiya
- C. G‘afur G‘ulom
- D. Mirtemir.

17. Zulfiyaning “Yorqin yo‘lda” ocherkining asosiy qahramoni kim?

- A. Manzura Sobirova
- B. Tursunoy Karimova
- C. Hamid Olimjon
- D. Onasi

18. Zulfiyaning oxirgi dostoni qaysi?

- A. “Xotiram siniqlari”
- B. “Sensiz”
- C. “Uni Farhod der edilar”
- D. “Qishloq vrachi”

19. Zulfiyaning Qobilqori Siddiqovga bag‘ishlangan asarini ko‘rsating.

- A. “Uni Farhod der edilar”
- B. “Hijron kunlarida”
- C. “Quyoshli qalam”
- D. “Yoshlikning qulochi”

20. “Mening boshimga tushgan kulfat umumiyo‘qotishlar oqimiga teng kelib qoldi. Mening qayg‘ularim umumxalq qayg‘usiga qo‘silib ketdi. Atrofimdag‘i odamlar bu kitob nega muncha tez yozildi, deb hayron bo‘lishadi. Undagi satrlar shaxsan o‘z hayotimda ro‘y bergan voqealardan oldin yozilganini bilishmasdi”. Shoira bu fikrlarni kimga aytgan edi?

- A. Olga Ipatovaga
- B. Anvar Jo‘rabyevga
- C. Aleksandr Naumovga
- D. Viktor Tryukovga

GLOSSARY

San'at – istilohiy ma'noda san'at deganda insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan *yaratuvchilik faoliyati* hamda shuning natijasi o'larq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi. Istilohning mazkur keng ma'nosida go'zallik qonuniyatlari asosida *mahorat* va *did* bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqador hisoblanadi. *Insonning go'zallik qonunlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan ijodiy-ruhiy faoliyati, shu faoliyat natijasida yaratilgan qadriyatlar va ularning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi keyingi hayoti tushuniladi.*

Badiiy ijod – go'zallik qonuniyatlari asosida amalga oshiriladigan ijodiy-ruhiy faoliyat.

Obraz – “biror nimaning ongdagi aksi”, “biror nimaning badiiy asardagi tasviri”.

Obrazli tafakkur – obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur” deb yuritiladi.

Obrazlilik – badiiy obraz vositasida fikrlash va ifodalash.

Badiiy obraz – adabiyotshunoslikda “badiiy obraz” atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda “badiiy obraz” deganda borliqning san'atkori ko'zi bilan ko'rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma'noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi.

Badiiy psixologizm – personaj ruhiyatining ochib berilishi, xattiharakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi tushunilib, u mazkur vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qator usul, vositalarni o'z ichiga oladi.

Motiv – shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir. Masalan, Cho'lpon qo'llagan ma'nosini nuqtayi nazaridan “yo'l” obrazi motiv sanalishi mumkin: ayni shu obraz uning ham she'riy, ham nasriy asarlarida tez-tez takrorlanadi. Zulfiya ijodida vafo, sadoqat va hijron motivi, shuningdek bahor motivi yetarlichcha uchraydi.

Badiiy asar – “*badiiy asar*” degan birikmali istiloh keng va tor ma'noda qo'llanishini aytish kerak. Keng ma'noda badiiy asar deyilganda san'atga (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr v.h.) aloqador, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsuli o'larq dunyoga kelgan yangi mavjudlikni tushunamiz. Bu ma'noda

musiqa asari ham, haykal yoki rangtasvir ham, film yoki spektakl ham – bari badiiy asar sanaladi, ularning hammasiga nisbatan “badiiy asar” atamasini qo’llash to‘g‘ri bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda esa ushbu atama ko‘proq tor ma’noda – so‘z san’ati vakili bo‘lgan asar ma’nosida faol ishlatalidi.

Ilhom – ko‘tarinki ishchan kayfiyatga chulg‘angan ma’naviy-ruhiy holat. Bu holatda ijod jarayoni yuksak zavq bilan, samarali, ko‘ngilli va yengil kechadi.

Ijodiy niyat – san’atkoring voqelik bilan munosabati, voqelikni o‘zining estetik ideali, dunyoqarashi, sajiyasi, madaniy-ma‘rifiy darajasi, hayotiy va ijodiy tajribasi, tug‘ma iste’dodi quvvati asosida qabul qilishi va idrok etishi.

Badiiy ijod jarayoni – san’atkor ongida ijodiy niyat yetilgan paytdan to asarga so‘nggi nuqta qo‘yligunga qadar bo‘lgan vaqt ko‘zda tutiladi. Ayni shu vaqt oralig‘ida san’atkor ongida kechgan ijodiy-ruhiy jarayon badiiy asarda akslanadi.

Mumtoz (klassik) asar – vaqt sinovidan o‘tib, milliy madaniy bisotdagi o‘lmas qadriyat o‘larоq umume‘tirof etilgan asarlar. Mumtoz sifatiga ega bo‘lish uchun asar zamon sinovlaridan o‘tib, mudom o‘zining yangi-yangi ma’no qirralarini ochishi bilan hamma vaqt o‘quvchi ma’naviy-ruhiy ehtiyojlariga javob berishi lozim. Qisqa qilib aytak, asarga “mumtoz” sifatini vaqt beradi.

Durdona (shedevr) asar – “durdona” so‘zi zamondoshlarning asarlariga nisbatan ham qo‘llanaveradi, unda zamon sinovlaridan o‘tganlik ma’nosи yo‘q. “Durdona” so‘zida esa subyektiv baho ma’nosи ustuvorroqdir.

Mavzu – “tema” (mavzu) termini ikkita ma’noda faol ishlatalidi: 1) asarda tasvirlanayotgan hayot materiali; 2) asarda badiiy idrok etish uchun qo‘ylgan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolar yig‘masi.

Tendensiya – muallifning o‘zi tasvirlayotgan voqeа-hodisalarga g‘oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar sistemasida o‘z ifodasini topuvchi problemani anglashi va baholashi. “Tendensiya” lotincha so‘z bo‘lib, terminga uning “yo‘naltirmoq” ma’nosи asos bo‘lgan.

Badiiy g‘oya (keng ma’noda – *badiiy konsepsiya*) – asarda qo‘yligan problemaning qalamga olingan hayot materiali asosida idrok etilishi.

Doston – nazm bilan yozilgan ulkan hikoya, qissa; poema. Dostonlar bir umumiy nom bilan atalsa-da, janr xususiyatlariiga ko‘ra ular turlichadir. Shuning uchun amaliyotda lirik doston, epik doston, dramatik doston kabi

aniqlashtiruvchi atamalar qo'llanadi. Zulfiyaning "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" dostonlari lirk dostonlar sirasiga kiradi. Negaki, ularda voqealardan ko'ra shoira tuyg'ularining ifodasi ustuvordir.

Ijodiy meros – ijodkorning o'zidan qoldirgan asarlari jami. Hamid Olimjonning ijodiy merosi uning o'n tomdan iborat bo'lgan "Mukammal asarlar"ida aks etgan. Undan janr jihatdan turlichay bo'lgan asarlari o'rinn olgan.

Lirika – badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan biri. Unda borlik muallifning chuqur, jo'shqin ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, fikrmulohazalariga yo'g'rilgan holda aks ettiriladi.

Maqola – to'plam, jurnal, gazeta va shu kabilar uchun yozilgan, hajmi uncha katta bo'lмаган ilmiy yoki publisistik asar.

Ocherk – hayotiy faktlarning qisqacha tasviridan iborat kichikroq hajmdagi nasriy asar. Zulfiya "Saylanma"sida shoiraning ikki ocherki o'rinn olgan.

She'r – muayyan o'lchov asosidagi ritmga ega nutq shakli, nazm. She'r o'zining musiqiy jarangi, emotsiyal-hissiy to'yintirilganligi bilan nasriy asarlardan farq qiladi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati: Zulfiya asarlari:

1. Shalola. Saylanma. 3 jildlik. 1-jild –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
2. Mushoira. Saylanma. 3 jildlik. 2-jild –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
3. Kamalak. Saylanma. 3 jildlik. 3-jild –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.

Darsliklar:

1. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1999.
2. Sanjar Sodiq. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘qituvchi NMIU, 2019.
3. S. Mirzayev. S. Shermuhamedov. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1993. 335-349-betlar.

Ilmiy adabiyotlar:

1. N. Shukurov. Uslublar va janrlar. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. 116-bet.
2. N. Shukurov, So‘z sehri, she'r mehri, Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Samarqand, 1992, 87-88-betlar.
3. Umurov H. She'riyat malikasi bilan g‘oyibona suhabatlar. Esse. – Samarqand, 2004. 64 bet.
4. Umurov H. Tahlil chizgilari. -T.: Muharrir, 2013. 146-bet.
5. Umurova G. Zulfiya ijodi va rus adabiyoti (tarjima, tanqid, anglash) filol. fanlari nomz... diss. Avtorefer. –Samarqand, 2004, 22-bet.
6. Karimov N. Zulfiya (ma'rifiy-biografik asar). –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
7. Qozoqboy Yo'ldosh. So‘z yolqini. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
8. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2019.

Elektron manbalar

1. <http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
2. <http://ensiklopediva.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti.
3. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portalı.
4. <http://zivonet.uz> –O‘zbekiston milliy ta’lim portalı.

5. <http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi.
6. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ZULFIYANING HAYOT VA IJOD YO'LI.....	5
II BOB. SHOIRA IJODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	18
III BOB. ZULFIYA IJODINI O'RGANISH YO'LLARI....	59
Mavzuning o'zlashtirilganini aniqlashtirish uchun test topshiriqlari.....	68
Glossariy.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar.....	76



ISBN 978-9943-8127-4-1

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-8127-4-1.

9 789943 812741